

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**“BADIY ASARDA QAHRAMON XARAKTERINING
SHAKLLANISHI”**

(Istiqlol davri nasri misolida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Xudoybergenov Oybek_____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n. G.Avezova _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014 yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Avezova G.

DAK Q A R O R I:

XUDOYBERGENOV OYBEKning «“Badiiy asarda qahramon xarakterining shakllanishi” (Istiqlol davri nasri misolida) » mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo’yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

«_____»_____ 2014 yil

REJA:

KIRISH

I BOB. BADIY XARAKTERNI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFIY-
ESTETIK TAOMILLAR O'ZARO MUNOSABATI

II BOB. QAHRAMON XARAKTERINING NAMOYISHIDA RUHIY
TAHLILNING O'RNI

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlol sharofati bilan badiiy adabiyotda o'ziga xoslik ko'zga tashlana boshlandi. Bu o'ziga xoslikning yuzaga kelishida albatta, buyuk O'zbekistonning dunyoga yuz ochishi bilan belgilanadi, albatta! Negaki, mustabid tuzum davrida jahon adabiyotiga bo'ylashadigan asarlar yaratishda yozuvchilar biroz hadik bilan qo'liga qalam olardilar. Ayniqsa, sho'ro davri adabiyoti bu kabi masalalarni to'laligicha tasdiqlaydi. Aytish joiz, milliy istiqlol davri nasri har qachongidan ham shakllanib, boyib borayotgani fikru mulohazalarimizdan shahodat beradi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek: **«Mening fikrimcha, yozuvchilik — bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu — qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir»¹**. Darhaqiqat, ushbu ibratli purma'no fikrlarning o'ziyoq bizning bugungi adabiyotimizda yaratilish lozim bo'lgan mustaqil yurt qahramonini har jihatdan murakkab va ibratli qilib ko'rsatish uchun asos vazifasini ko'rsatmoqda. To'g'ri, har bir asarda yangidan-yangi voqeliklar qalamga olinadi. Bu tabiiy hol! Lekin o'sha yaratilarda qahramon masalasi to'la-to'kis baholi qudrat hal qilinyaptimi? Hamma gap shunda. Chunki badiiy asar insonni kashf qiladi. Inson kashf qilingandagina – tafakkur, borliq va yashash haqidagi sir-bilimlardan kishi to'laligicha voqif bo'ladi, yoki shu pog'onaga asta-sekinlik bilan ko'tarila boradi. Shuni aytish joizki, milliy istiqlol qo'lga kiritilgan kundan boshlab, adiblarimiz asriy orzusi – erkin ijod qilish yo'lga o'tdi. Har qanday erkinlikning og'ir va mashaqqatli tomonlari, yozgan asarlaridagi milliy tafakkurning nechog'li balandligi bilan o'lchanadi. Shu bois,

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: «Ma'naviyat». 2009. 14-b.

davrning kayfiyati unda yashovchi inson qalbidagi og`riqlar qanday ahamiyat kasb etmoqda? Bugungi kun yozuvchisi xarakter ruhiyatini shakllantirishda nimalarga e`tibor berib kelmoqda? Aynan shu jihatlarni tekshirish biz tanlagan **«Qahramon xarakterining shakllanishi»** degan mavzuning nechog`li dolzarb ekanligini isbotlab turibdi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Badiiy asar ichi bo`sh idish kabidir. Unga yozuvchi olam va odam, xususan, borliq haqidagi oydin orzularini-yu, go`zal istaklarini, bashariyat uchun dolzarb masalalarni joylashi bilan to`ldiradi. Bu idishning rango-rangligi ham undagi – xarakter, qahramon, obraz tushunchasining nechog`li yorqin bo`yoqlarda jilvalantirilgani bilan ham o`lchanadi. Prezident Islom Karimov ta`kidlarida shunday hikmatomuz tushuncha bor: **«Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma`naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga biz ilgari ko`rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining, bashariyatning ertangi kunini o`ylab, odamlarni ezgulikka, mehr-oqibat va bag`rikenglikka da`vat etishga qaratilgan haroratli so`zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda»**². Darhaqiqat, bu fikrlarni bugungi kun nasriga undagi qahramon masalasiga muqoyasa qilsak masala mohiyati yanada tiniqlashadi. Tanlangan mavzu yuzasidan u yoki bu darajada ixcham tadqiqotlar, talqin va tahlillar olib borilgan bo`lsa-da, badiiy nasrning mikro va makro elementi – obraz ziynatiga xos talqin zohir qilingan emas. Bu borada masala yuzasidan o`rganilgan nomlarni keltirish mumkin. U.Hamdam «Yangilanish ehtiyoji», D.Quronov «Adabiyot nadir? Yoxud Cho`lponning mangu savoli», Q.Yo`ldoshev «Yoniq so`z», H.Umurov «Tahlil chizgilar», Y.Solijonov «Haqiqatning sinchkov ko`zlari» kabi katta-kichik tadqiqotlarda masalaga ayrim murojaatlar qilinganini uchratish mumkin.

² Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: «Ma`naviyat», 2008. 136-bet.

Shu asosda biz mazkur o'rganilgan ishlarga tayanib, yangicha ilmiy tafakkur negizida tadqiq qilishga harakat qildik.

Tadqiqotning metadalogik asosi. Prezident Islom Karimovning ma'naviyat va ma'rifat borasidagi asarlari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi «Milliy istiqbol g'oyasi va ma'naviyat mafkurasi» asos vazifasini o'taydi..

Tadqiqotning joriylanishi. Bitiruv-malakaviy ish oliy o'quv yurtida bajarildi. Unda hozirgi o'zbek nasri borasida olib borilgan istiqbolli rejalar dasturi doirasida amlga oshirildi. Tadqiqot ishida oliy o'quv yurtlari talabalari – kurs ishi, referat, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda manba sifatida foydalanishi mumkin.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv-malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, istiqbol yillarida yaratilgan asarlar hali to'la to'kis o'rganilib bo'lingani yo'q. Chunki, davrning ilg'or sur'atlarda rivojlanib borishi badiiy asarlarni o'rganishning yangicha qirralari, metodlari yuzaga chiqmoqda:

I.Sultonning “Munojot” qissasida G'arib xarakteri – uning tug'ilishidan to, hayotni anglashigacha bo'lgan oraliqni badiiy vaqt sifatida tanlaydi. Buni tahlil qilish asnosida xarakter qirralari ochiladi;

G'arib obrazida jipslashgan voqelik falsafiy mushohadasi yozuvchining o'zining mushohadalari yanglig' ko'zga tashlanishini ilmiy asoslash;

U.Hamdanning “Isyon va itoat” romanida qahramon ruhiyati namoyishi orqali jamiyat hayotiga zimdan nazar tashlash holati ko'zga tashlanadi;

Akbar va G'arib timsollarining bir-biriga o'xshash jihati har ikkisining ruhiyatida ma'aniyatga bo'lgan ishtiyoqning zohirligini tekshirish, roman va qissa janrining farqli va o'ziga xos tomonlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obekti va predmeti. Bitiruv-malakaviy ishga yigirma yillikda yaratilgan Isajon Sultonning «Munojot» qissasi, U.Hamdanning «Isyon va itoat» romani asos vazifasini o'taydi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ish **kirish II ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan** iborat.

I BOB. BADIY XARAKTERNI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFIY-ESTETIK TAOMILLAR O'ZARO MUNOSABAT

Iste`dodli yozuvchi Isajon Sulton (Sultonov) 1967 yil 6 aprelda Farg`ona viloyatining so`lim go`shalaridan biri Rishton tumanining Avazboy qishlog`ida tavallud topdi. O`rta maktabni a`lo baholarga tugatib, beg`ubor orzulari bilan Toshkentga yo`l oladi. Ilk bor omadini O`zbekiston Milliy universitetning jurnalistika fakultetiga o`qishga topshirish bilan sinab ko`radi. Taqdirning inoyatini qarangki, yuragida adabiyotga ishtiyoqi baland bo`lgan Isajon Sulton mazkur oliygohning talabasiga aylanadi. Bu davrda juda ko`plab hayotiy, ilmiy va ijodiy tajribalarni to`playdi. O`zining hikoya qilishicha, milliy universitetni imtiyozli diplom bilan tugatish baxtiga muyassar bo`ladi. Ijod na`munalari Respublika matbuoti sahifalarida 1986- yildan beri e`lon qilinib kelinmoqda. Ijodini birin-ketin hikoyalar yozish bilan boshlagan yozuvchi o`ziga xos uslubda yozilgan "Munojot" qissasini 1990-yil, ya`ni yigirma uch yoshida e`lon qiladi. (Men o`sha qissa bosilib chiqqanida hali hayotni tanib ulgurmagan bir o`spirin, besh yoshda ekanman.) keyinchalik "Oydinbuloq" (1995), "Boqiy darbadar" (2011) kitoblari chop qilindi. Shuni alohida qayd etish zarurki, yozuvchi kim va nima haqida qalam tebratmasin, hamisha kishi diqqatini o`ylashga undaydi, inson qalbining teranliklariga kirib borishga harakat qiladi. Asarni o`qigan kitobxon qalbning bepayon kengliklarida sayr qiladi va u yerdan ma`no izlaydi, kitobxonga sohir va beg`ubor ma`no hadya qiladi. Bir paytlar men hali yosh edim. Litseyda o`qib yurgan kezlarim edi o`shanda. Buyuk yozuvchi Dostoyevskiyni o`qigandim. Bunchalik katta qalbni tahlil qilishni qoyillatgan daho ijodiga mehrim ortib, mahliyo bo`lgandim. Bunga qanday erishgan ekan degan mushohadalar yillar hayolimni bandi qilib kelayotgandi. Kunlar o`tib, adabiyotimizda mana shunday qalb dialektikasini yoritishga bel bog`lagan ijodkorlar maydonga chiqayotganini ko`rib faxrlanasan kishi va bularni o`z navbatida faqatgina e`tirof etish joiz, deb o`ylayman. Sevimli adibimiz Isajon Sultonning bir necha hikoyalari "XX asr o`zbek hikoyalari antalogiyasi"dan

o'rin olgan. Xususan, "Oydinbuloq" to'plamida adibning kamolotga yetib, o'ziga xos yo'l ochgan qirralarini namoyon etib turuvchi asarlari jamlanganini ko'rish mumkin. Unda "Munojot" qissasi ham o'rin olgan. Qissada G'arib ismli bolakay hayoti tasvirga olinadi. Shuningdek, bu to'plamdagi hikoyalar aksariyat qismi matbuotda e'lon qilingan va vaqtida o'z bahosini olgan edi.

2012-yil "Jannat makon" jurnalida berilgan suhbatida adib o'z bolaligini shunday xotirlaydi: *"Farg'onaning Rishtonidan janubda, tranzit yuklar qatnovi tinmaydigan Ergashto-O'sh, Andijon-Toshkent xalqaro trassasidan bor-yo'g'i ikki chaqirim ichkarida kaftdekkina Avazboy qishlog'i bor. Bahorida borliq tuprog'i uyg'onib, anvoyi o't-o'lanni jo'shtirib yuboradigan shu so'lim va sokin maskanda tug'ilganman. Erta sahar non yopish uchun tandirga lang'illatib o't yoqilgani, bo'zarayotgan tong yorug'ida olovning qirmizi shu'lasi o'ynashlari, shamolli kunlarda to'n kiyib, belbog' bog'lagan kishilarning ko'chalarda to'p-to'p turishlari xotiramda o'yilib qolgan. Ulug'lar qoshida odob saqlash, aytar so'zini o'ylab tilga chiqarish, katta-yu kichikka qanday muomila qilish kerakligini ilk saboqlarini shu qishloqda olganman. Muhtasham o'zbekona madaniyatning mo'jaz va uzoq makoni bo'lib ko'rinadi ko'zimga Avazboy. Hamma bolalar kabi yer chopar, o'toq qilar, g'o'zapoya qirqar, xullas, tirikchilik tashvishiga kirib borayotgan o'smirlardan biri edim-u dunyoning qayerlaridadir ro'y berayotgan voqealarga ham juda qiziqardim. Sakson uchinchi yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tugallab, Toshkentga, universitetga kelganman. Yozuvchilikka jiddiy qiziqish davri shunda boshlangan shekilli. Talabaligimda birin-ketin hikoyalarim e'lon qilindi, shu tariqa, ijod dunyosining siru sinoatlari bilan tanisha boshladim".* Darhaqiqat, ijodkor bo'lish orzusida hayotni zimdan, tiyrak nigoh bilan kuzatish, qolaversa yaxshi o'qish lozimligini ancha ilgari his qilgan adib doim o'z ustida jiddiy ishladi. Bir narsaga oydinlik kiritish kerak "Munojot" (1990) qissasidan keyin adib yigirma yil vaqt mobaynida tinimsiz o'qidi, o'rgandi, jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishdi. Adabiy hodisalar o'z-o'zidan paydo bo'lmas ekan, bunga ham ichki bir

ehtiyoj mahsuli sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Chunki adibning har ikkala romani ham postmodernizm oqimining eng yuksak namunalari qatorida turadi. Nima uchun biz "Alximik"ni sevib o'qiymiz? Undagi voqelik ham bitta yigitning xazinani izlab yo'lga chiqishi va bu izlanishlarida turli xil taqdirlarni boshidan kechirishi hikoya qilinadi. Isajon Sulton asarlarida esa "milliy qadriyat" va "milliy ruh"ning singdirilishi, o'sha kayfiyatga murojaat qilishi kitobxonni beixtiyor izidan ergashtiradi. Lekin uslubi juda og'ir. Agar kitobxon ushbu asarlarni o'qiganda "tushunmasa" o'zidan o'pkalasin. Axir bugungi "neorealizm", "postmodernizm" kabi hodisalar insoniyat taraqqiyotining, jamiyat hayotining o'zgarishlari natijasida kirib kelgan, yaratilgan adabiy yo'nalishlar sanaladi. Biz uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan ekanmiz, fikrlarimiz ham, tafakkur va tasavvurlarimiz ham shunga monand yuksaklasha borishi kerak... Yozuvchining "Boqiy darbadar" romanidan o'rin olgan tarixiy hikoyalar, zamonaviy mavzudagi hikoyalar ham o'ziga xos uslub mahsuli. Unda bitta jihat kishini o'yg'a toldiradi: inson qismatining biz bilmagan, ko'rmagan turfa taqdirlari bor ekanki, uni his qilib, quvonch-u tashvishi bilan "yonib-yashagan" adib talqinlari haqiqatdan ham umuminsoniy muammolarni haqqoniy yoritib bergan degan xulosaga kelamiz.

Shuni unutmazlik kerakki, har qanday badiiy asarda yaratilajak obraz, avvalo, yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettirish vositasi hisoblanadi. Ayni chog'da, u muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Har bir personaj o'zida yozuvchining estetik idealini u yoki bu darajada tajassum etadi. Bu vazifani bajarish uchun o'sha obraz muayyan ijtimoiy sharoitda, ruhiy-ma'naviy muhitda harakatlanishi zarur. Bu tabiiy ravishda ro'y berishi kerak. Mabodo, san'at asarida muallif hayotdagi mavjud narsalarga, voqea-hodisalar va odamlar taqdiriga faqat sun'iy, rasmiy taqlid qilish maqsadi bilan yondoshsa, bu badiiy asar emas, balki mahorat bilan yasalgan narsalar majmuasidangina iborat bo'lib qoladi. Bunday sun'iylikdan holi bo'lish uchun san'atkorning estetik tafakkuri aniq va barqaror bo'lmog'i

shart. Biz tahlil doirasiga tortgan asarlarga shu nuqtai nazardan murojaat qilsak, adiblarning estetik ideali turlicha saviyada ekanligi ayon bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur asarlar g`oyaviy-badiiyliigi bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Isajon Sultonning «Munojot» qissasida G`arib ismli ilmga chanqoq bolaning ruhiyati o`ziga xos tarzda tasvirlanadi. Unda G`aribning oyisi Adolat opa bilan qilgan suhbatlarida yanada yorqinroq namoyon bo`lganligini anglash mumkin. Xudoning o`zi G`aribni iste`dod degan ne`mat bilan siylayapti:

«To amakisi kelguncha G`arib juda ko`p rasmlar chizib tashladi. Hatto tushida ko`rgan manzarasini ham tasvirlashga urinib ko`rdi, u xuddi tundagiga o`xshab chiqdi: yulduzli osmon va oy, sutday yog`duga burkangan mudroq qishloq, soy bo`yidagi sayhonlikda nurga cho`milayotgan sehrigar ilon va samoning yarmini enlab, surilib kelayotgan ko`lanka – qora hayolotning qora sharpasi...»

Surtalar ichida G`aribga eng yoqadigani – jununvash Mashrabning yana bir tasviri edi. Bu o`sha, G`arib orzu qilib yurgan manzaraning naq o`zi edi... Buyuk jafokash hadsiz-hududsiz biyobonda, go`yo «Qonimni eting lolai sahro» deb yiqilgan singari yuztuban tushib yotar va bu hol behollikdan emasdi. Shoir dard-u g`amning zo`ridan setorini otib sindirib, boshini zaminga urgan edi. Ozg`in barmoqlar boshini mahkam changallagan, to ufqqacha qontalash biyobon, hatto osmon ham qizg`ish edi... Zamin ko`ngil qoni bilan bo`yalgan va ajabki, munavvar bo`lgan edi. Samo munavvarligi esa yerda bir nuqta kabi yotgan jonning qirmizi qonidan emas, balki olis-olislardagi bulutlardan ham yuqoridagi nurli siymoning shu qadar aziz va sevimli ediki, chizgan rasmini qo`liga olganida, har safar badani jimirlab ketardi»¹

Bolalik – bu G`aribning tiyrak nigohi. Uning hamma narsani bilishga bel bog`lagani. Va oxir-oqibat G`arib nima haqida jiddiy bosh qotirmasin, o`sha masalaning mohiyatiga kirib biladi. «Munojot»ni o`qib shunday xulosaga

¹ Isajon Sulton. Munojot. –T.: «O`zbekiston», 2011. 132-bet.

keldim. Ayniqsa, G`arib obrazi xuddi mening ham akam yoki do`stimdek qadrdon. Onasiga bergan savollari, tabiat hodisalariga qiziquvchanligi, beg`ubor qalbining ozorlanishini istamay, hamma narsalarni o`z o`rnida qilib borishi, bu o`sib kelayotgan avlod uchun ibrat namunasi deyish mumkin. Ustoz-adiblarimiz orasida shunday “hikmat yuradi”: “har bir asar mening farzandim kabi suyumli. Chunki asar yurak qoni bilan yoziladi. Yurakning amriga bo`ysunib, uning aytganini qilgan inson borki, o`z hayotining barcha qirralariga nazar tashlay oladi. Ya`ni har bir asar qahramoni yozuvchining o`zi bo`lishi mumkin”. “Munojot” qissasi haqida fikr yuritgan munaqqid Ulug`bek Hamdam shunday e`tirof etadi: “G`arib – yozuvchining o`zi. San`at mag`zida aslida o`zini-o`zi ifoda qilish (samovirajenie) yotadi. Nazarimda, G`arib obraziga kirgan og`riq-dard yozuvchining ko`nglida uzoq vaqt yashagan, uni qiynagan. Xuddi G`aribni o`z holiga qo`ymagan va nihoyat, qog`ozga surat shaklida tushgan Mashrab yoki Munojot siymosi yanglig`. Lekin ba`zi o`rinlarda yozuvchi G`aribdan ajralib chiqadi va boshqa odam bo`lib gapiradi”. Darhaqiqat, adib ushbu asarini yozganida 23 yoshida edi. Iste`dod va yosh masalasi doim har bir ijodkorni tarjimai holi bilan tanishganimizda namoyon bo`ladi. Masalan, Abdulla Qodiriy “O`tgan kunlar”ni yozganida 26 yoshda edi. Cho`lpon 16 yoshida “Adabiyot nadur?” maqolasini yozdi. Navoiy bobomiz 6 yoshida g`azal mashq qila boshlagan. Bu har bir ijodkorga Yaratgan tomonidan berilgan in`om. Adabiyotshunoslar alohida ta`kidlaganidek, adibni elga tanitgan, uning o`ziga xos uslubi, o`rni borligini isbotlab ko`rsatgan eng katta asari “Munojot”dir. O`ylab qaralsa, qissa syujet va kompozitsion va uslubiy jihatdan o`zbek adabiyotida yaratilgan qissalar orasida betakror. Unda ona va bola o`rtasida kechadigan teran mushohadkor fikrlar, suhbatlar bilan boyitilib, uyg`unlik kasb eta boradi. Masalan quyidagi parchaning o`ziyoq fikrlarimizni to`laqonli asoslab turibdi:

“Inson – deya o`ylardi G`arib, o`zining hayoti bilan cheksizlikni rad etadi, butun umri davomida unga qarshi kurashadi. Yaxshiki, hech kim fazo oldida na

umr, na vaqt hech narsaga arzimasligini o'ylamaydi, bunga uni turmush majbur qiladi, agar o'ylasa, rostdan ham tushkunlikka tushib, o'zini-o'zi xarob etardi... Balki, o'z-o'zini anglash kishilarni tag'in ham bir-birlariga jipslashtirar? Axir, uzluksiz taraqqiyot yo'larida odamning o'z-o'zini mahv etish sari borishi juda ham mumkin hol emasmi? taraqqiyot cheksiz davom etaversa, benihoya yuksak kamolotga erishgan odamzod yana boshlang'ich holiga qaytadimi-yo'qmi?"¹

Keskin munozaralar og'ushida qolgan G`arib ziynatiga xos muhim fazilat bu uning – o'zligi. Tarixiy-ijtimoiy zarurat yuzasidan bunyod bo'lgan katta-kichik kashfiyotlar ham aslida insoniyatning mavjudlik jumbog`ini anglash yo'lidagi bitta zinapoyalarning turli xil ko'rinishlari, xolos. Yozuvchining ma`lum va mashhur qissasida “Qor odami” Mashrabni anglashlik hissi ustuvor. Mashrabning nuroniy siymosi G`arib ismli dunyoni anglashga bel bog`lagan tiniq nigohli bolakayga juda ko'p hodisalar tilini uqtirmoqqa tutinadi. Bu o'rganishlar G`aribni yanada fikr va tafakkuri yuksak marralar sari yetaklaydi. Shu o'rinda aytish joiz, G`arib haqida munaqqid Rahimjon Rahmat fikrlarini keltirishda ham masalaga keng to'xtala olamiz: “G`aribning tug`ilishidagi noodatiylik va favqulodda qobiliyatining tez namoyon bo'lishi ham qadimgi dostonlarimizni yodga soladi. Alpomish olti yoshida hech kim ko'taraolmagan kamonni ko'taradi. Majnun, hali emaklab yurgan paytidayoq, qayerda olov ko'rsa ishq otashimikim deb unga tomon intiladi. G`arib ea tabiat bilan dillashishni xush ko'radi. G`arib – tabiat manzaralari, hodisalari, ulardagi o'zgarishlar zamirida ulkan sohir qudrat nafasini his etib turadi. G`aribning iste`dodi – tabiat bag`ridan, go'zal manzaralardan hikmat topadi”² Darhaqiqat, G`aribning tez ulg`ayishini ta`riflagan munaqqid bola psixologiyasining o'ziga xos qirralari har kimda turli xil kechishini ham mantiqiy urg`ulaydi. Ya`ni bola “o'tgan kunni va kelajakni o'ylamaydi, shuning uchun ham yashab turgan kunidan kattalardan ko'ra ko'proq zavqlanadi” (R.Rahmat). Ayniqsa, hali o'n-

¹ Isajon Sulton. Munojot. –T.: “O'zbekiston”, 2011. 135-bet.

² Rahimjon Rahmat. So'ngso'z “Munojot”dan “Boqiy darbadar”gacha. –T.: “O'zbekiston”, 2011. 255-bet.

o'n ikki yosh arafasida bahorning issiq kunlarida, ya'ni aprelda qaldirg'och bildirmaygina ayvonimizga kelib, o'tgan yilgi uyasini izlay boshlaydi. Bordi-yu, uyasi turgan bo'lsa, ayvonimizni boshiga ko'tarib, "zavqu shavq" bilan "chuq-chuq"laydi. Buni ko'rib turgan hayajonga berilgan o'spirin haqiqatdan ham olamga boshqacha nigoh bilan razm soladi. Unga o'sha yashab turgan, olayotgan nafasidan boshqa zavq ortiqcha. Chunki bola qaldirg'ochning yoqimli va beozor ovoziidan hayratlanadi va uning humoridir ayni damda. G`arib ham nafaqat tabiatning jonsiz narsalari, balki qanot qoqib osmonlarni to'ldirib yurgan qushning, jonivorlarning "tili"ni tushunadi. Isajon Sulton bu qissasini bolalikning sohir oruzalari-yu, kelajakning nurli yo'llariga ishora sifatida yozgan desak ham aslo mubolag`a qilmaymiz. Negaki, yozuvchi ushbu asarini yozib e`lon qilganida 23 bahorni qarshilagan edi. demak, qissa yozilgan davr va uning yaratuvchisi kirib kelgan yosh orasida muayyan bog`liqlikni tuyaman men. Binobarin, asardagi makon va zamon, davr va muhitning hech qanday "hidi" sezilmaydi. Boshqa tomondan asarni qaysi davr mahsuli degan savolni berishdan ham yiroqman. Adol opa va uning o'g`li orasida kechgan ushbu muloqot ham har birimizni bola paytimizga qaytishga, u erda turfa mo'jizalar sodir bo'lib, biz e`tibor qaratmagan jihatlarning bisyorligini anglashga undaydi:

“Alalxusus, fandan ham, dindan ham ko'ngli sovidi. O'qituvchilarning bergan bilimlari uni qoniqtirmasdi, ular ilmiy tushunchalarni tinmay to'tiday takrorlashar hamda agar ahvol shunday davom etaversa, G`aribni maktabdan haydajaklarini aytib po'pisa qilardilar.

U inson yolg`izligini ifodalovchi bir necha suratlar chizdi, biroq ko'ngli to'lmadi, ranglar juda tussiz va quruqday ko'rindi ko'ziga hamda ulardan voz kechdi”³.

Ko'rinadiki, yozuvchi bu o'rinda bilimga chanqoq, aqli ma`rifatga mushtoq o'spirinning xarakterini tasvirlaydi. G`arib bilim va malakasi oshgani sayin, yoshi ham ulg`aya boradi, ammo atrof-javonibdagi “sirlar pardasiga

³ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. –T.: “O'zbekiston”, 2011. 135-bet.

o'ralgan" yana allaqanday bilimlardan o'ziga ma`qullarini olajagini alohida mantiqiy urg`ulaydi. Bular G`aribning kamolotga etishmog`iga bir ishora, xolos. Ammo boshqa bir tomonda G`aribning xolis nigohi, yozuvchining hasratini to`laligicha namoyon qilib ulgurgan. Demak, inson o'zi anglagan dunyo ichra, anglanmagan dunyo chegaralarini "bosib" o'tishga shay. Nega deganda inson fitratida jam bilimlar unga saodat keltira olmasa, bundan boshqa ozor yo'q uning uchun. G`arib shu maqsadda kuyinadi, harakat qiladi. U tabiat va jamiyat, butun olamda zohir bo'lib turgan "akslar falsafasidan", hamrohi shamol yordamida anglab etmak istagida yonib yashaydi...

Yozuvchi Isojon Sulton qaysi mavzuga qo'l urmasin, unga tiriklik va bu dunyoga kelishdan maqsad ne ekanligini anglash inson uchun g`oyat sharafli ishligini tasvirlashni bosh mezon qilib belgilaydi. Boshqacha aytganda, "tafakkur - insonni" chiniqtiradi, u barcha bilimlarni egallashning birdan-bir yo'li ekanligini uqtiradi, qissadagi G`arib ham hali bola bo'lsa-da, hayotning mohiyatiga, o'z mohitidan kelib chiqib safar qiladi. Ya`ni butun umr bo'yi qilolmagan ishni bitta G`arib timsolida anglash sharaf ekanligini alohida ta`kidlaydi. G`arib – o'zligini anglab etgan inson. U jamiki razilliklarni ham, ezgulik va firiflarni ham bilib-sezib turadi. Mangu qolishlikning, inson o'zidan yaxshi nom qoldirishning eng oqil yo'li – ma`rifatga, ilmu donishga ega bo'lish deb tushunadi asar qahramoni. Shu tufayli o'zligini anglash, har bir insonga kerak va muhim fazilatdir deyish mumkin.

Badiiy asar tirik organizm kabidir. Unda har bir detal`, har bir hujayra o'z vazifasini – missiyasini bajaradi. «Munojot» qissasidagi qahramon xarakterining shakllanishi – tashqi faktor bilan emas, ichki faktor bilan qiyoslash mumkin. Azal-azaldan ota-bobolarimiz tafakkurni e`tiqod darajasiga ko'tarib kelganlar. Yuksak ma`naviyatli, bilimli va aqli zavo oriylarimiz – tafakkur qurolidan foydalanishgan. Shu sabab «Munojot»da ham G`arib xarakteri murakkab chizilgan. Bir qarashda yosh bolakayning xatti-harakatlarini qissa atalmish serjilo janrga joylab qo'ygandek, boshqa tomonda qissaining

mohiyatiga umuminsoniy tafakkur yoqlinlari singdirilgandek taassurot uyg`otadi o`quvchida. Negaki, mohiyat e`tibori bilan qissada ko`p qatlamli tasvir usulidan foydalanilgan.

Gap nima haqida deysizmi? Nafaqat o`zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham yosh bolaning qalbi azaliy va abadiy haqiqat – ma`nolarni his etishini chiroyli qalamga olingan badiiy asar topish qiyin.

Mashhur rassomlardan biri bolaligida qarmoqqa ilingan baliqchanning o`g`zi chetidagi jindek qonni ko`rib yomon ahvolga tushgan ekan. Yozuvchining G`arib obrazi ham salomlak urug`ini tortib borayotgan chumolining orqasi yorilib ketganini ko`rib ho`ngrab yig`lab yuboryapti. Shu G`arib bahonasida yosh bola qalbining mo``jizalari haqida soatlab g`aroyib gaplarni gapirish mumkin. Kun bo`yi bedapoyaning sero`t qirg`og`iga molni bog`lab qo`yib, kun botgunicha tollar va tutlarning tepasida, pasti o`tlar o`sgan tutlarning tagida o`ynab, maysalarda yumalab, ninachining orqasidan quvlab, kechqurun esa uxlash oldidan ko`rpaga boshingizgacha o`ralib, kunduzi o`ynagan joylaringizni o`ylaysiz, hozir u erlarda jin-ajinalar bazm qilyapti deb qattiq ishonasiz. Aynan mana shu yog`duning zukko professor Abdug`ofur Rasulov «Shafolat yog`dusidan bahramandlik» deb katta baho bergan edi. «Munojot» qissasidan keltirilgan iqtibosda mana bu fikr ham bor edi: «Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi?». Bu fikr Isajon Sultonning ijod dunyosidagi ildizi chuqur bir maysa edi, bu maysa eson-omon kattayib, ulkan daraxtga aylandi.

Isajon Sultonning ijodiy dunyosi go`zalliklari, nafosatidan bahra olmoqchi bo`lgan o`quvchi birinchi bo`lib «Munojot»ni o`qishi va chuqur his qilishi lozim. Uning qolgan asarlarida dunyoqarashi, tafakkur ko`lami kengayib, butun olam miqyosida tiriklik sir-sinoatini tushunmoqchi bo`layotgan G`aribning turli nom va ko`rinishdagi qiyofasi namoyon bo`ladi. Aytmoqchimizki, Isajon Sultonning barcha asarlarining bosh qahramoni «Munojot»dagi G`aribdir. Faqat

nom va muhit o'zga. Balki yozuvchi kitobini G`arib deb nomlaganida ham hech qanday mazmun o'zgarmaydi.

Isajon Sultonning "Munojot" qissasida xarakter namoyon bo'lishi uchun yozuvchi – tabiat tasviridan unumli foydalangan. Bu qissani shartli ravishda G`aribning tug'ilishidan tortib uning hayotni anglashi hayvonot va nabotot olamining inja sirlaridan voqif bo'layotganida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Deylik, mohiyat e'tibori bilan G`aribning qalbidagi ma`rifatga chanqoqlik va tashnalik **TUSHUNCHASI** doim uni ogohlikka da`vat qilib turadi. Qahramon dunyoni kuzatish asnosida jamiyat hayotining moddiy va ma`naviy merosini anglashga kirishadi. Ayniqsa, bahorda u ko'plab qushlar-u o'simliklar. Mayda qurt-qumursqalar bilan tillashadi. Nega aynan shu narsalar xususida bosh qotiradi? Buning sabablari nimada? Javob shundayki, G`arib – faqat yashash eb-ichish, tirikchilikdan iborat emas, har bir narsa (jonli-yu, jonsiz) bir hikmat o'qiydi. O'sha hikmatni anglash faqat qalb ko'zi ochiqlargagina nasib etadi. Adibning G`arib qahramoni ma`rifat timsoli. Qachonki inson o'zligini anglab etmoqchi bo'lsa, avvalo ma`rifatga qo'l berishini, ma`rifatni yoqlashini o'rganish kerak bo'ladi.

Buni o'ning rassomlik qobiliyati borligidan ham aniq-tiniq sezsa bo'ladi:

«G`arib konvertni yirtib, bir varaq qog`oz oldi.

- O'qi, bolam, - dedi u, yuzu ko'ziga hayronlik ifodasi ingan holicha. – Mashqlaringizni oldim. Ochig`i, xafa bo'ldim. Endigina ijodning sermashaqqat yo'lga qadam bosayotgan yigitcha uchun bu rasmlar yanglishishdan, almoyi alahsirashlardan boshqa narsa emas. Siz rassomlik nima ekanligini umuman tushunmaysiz!.. Zo'r berib yo'q ekanligini fan allaqachon shak-shuhbasiz isbotlagan narsalarni tasvirlashga urinib yetibsiz. Hayolot kuchi bilan yaratiladigan shoh asarlar bunyod etish sizga hech qachon nasib qilmasa edi, deb qo'rqaman. Sizning tutgan yo'lingiz chalkash ham qorong`udir. Sarobdan nimani kutsa bo'lar? Bu yo'lning oxiri yo'qdir. Barcha mohir musavvirlar o'z ijodlarini eng oddiy narsalarni tasvirlashdan boshlaganlar. Ular har doim katta

muammolar yukidan qo'rqish hissi bilan qalam yuritganlar. Sizning bu urinishlaringiz qo'rqinch bir tush, g'alat bir qorahayol!.. Yana bilmadim, balki, boshqa bir yo'l tutarsiz? Balki, sizdan musavvir emas, o'z ishiga mohir chilangir yoki dehqon chiqar? Bu xususda jiddiyroq o'ylab ko'rarsiz. Sizga boshqa maslahat berolmayman. Respublikada xizmat ko'rsatgan rassom Salimxon Solijonov...»¹

Yuqoridagi iqtibosda asar qahramonning ruhiy olami orqali atrofga, muhitga, yozuvchi nazar soladi. Hayotdagi ziddiyatlar, inson qalbidagi istiroblar teranroq aks etadi. Bu o'rinda qahramonning ma'naviy – axloqiy qiyofasi ramziy vositalar asosida talqinga tortiladi. Shuning uchun hayotning murakkab tomonlari bilan bir qatorda inson kechinmalaridagi fikrlar orqali jamiyatga, uning asosi bo'lgan insonga teranroq nazar soladi. Hayotiy ziddiyatlar insonni murakkab taqdirini ifodalashga asos bo'ladi. Istiqlol davridan oldinroq majoziylik ramziylik badiiy adabiyotda yetakchilik qila boshladi. Shuning uchun hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlar asosida inson taffakuri yetakchilik qiladi. Odamning qalb istiroblari, quvonchlarning betakror xususiyatlari badiiy adabiyotda yetakchilik qila boshladi.

Ma'lumki, badiiy ijoddagi muayyan yo'nalish o'z – o'zidan yuzaga kelmaydi. Uning o'z asosi, tarixi bo'ladi. Uning asosi esa zamon hamda davrdagi o'zgarishdir. Istiqlol davri hikoyachiligidagi yangilanish va tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog'liq. Yaa'ni unutilgan qadimiy qadriyatlarining tiklanishi, ma'rifat – ma'naviyatning asosi bo'lgan dinga, e'tiborning kuchayishi, davlat boshqaruvida demokratik yo'nalishning yuzaga kelishi, bozor iqtisodining tarkib topishi va hokazolar. Bu o'zgarish odamlarning boshqacha harakat qilishga undadi. Aniqki bunday sa'y – harakatning barchasi ong, taffakur orqali boshqariladi. Zero, shunday ekan, taffakurdagi evrilish adabiyotda o'z ifodasini topishi muqarrar va tabiiydir.

¹ O'sha asar. 138-bet.

Qahramonlar faoliyatiga, ruhiy dunyosiga, shuningdek voqyealar zamiriga sindirilib berilmagan g'oyaga ega bo'lgan asar to'la ma'noda badiiy asar sanalmaydi. Haqiqiy badiiy asarda voqyealar tizimi g'oyaga suyanib tuzalishi, qahramonlari g'oya asosida gapirishi yoki harakat qilishi kerak emas. Haqiqiy badiiy asar sanalishi uchun g'oya, yozuvchi asari orqali ko'zlangan maqsad, niyat voqyealar olamidan qahramonlar faolityaini sizib chiqishi kerak. Darhaqiqat, ma`rifat tushunchasini hayot shioriga aylantirishga ulgurgan G`arib o'z qo'llari bilan chizgan Mashrab va boshqa-da tabiat tasvirlariga kelgan rassomning javob xatini o'qib chiqarkan yuragini timdalagan og`riqdan rang-ro'yi uchib ketadi. Axir, u ne mashaqqat bilan Mashrabi donishning rasmini chizgan edi. Uning bolalik nigohlari yigitlik va undan ham oshib donishlik nigohlariga aylanmoqda emasmidi? Shunday edi. Aslida, farosatsiz rassomning javobi g`aribga otilgan ilk tosh deb qabul qilish lozim. U o'zi erisholmagan cho'qqilarni G`arib iste`dodida anglab o'ziga uni raqib sifatida bilib qoladi. G`arib esa o'z bilganidan qolmay, qalbining so'roqlariga javob topishda izlanishda davom etaveradi.

Ushbu javob xatida ham rassom xarakterini, ham G`arib xarakterini, ham amakisining xarakterini, ham Adol opa xarakterini individuallashtirishga erishgan adib, badiiy voqelikni uch o'lchamli rakursda – **KECHA-BUGUN-ERTAGA** tarzida baholashga shoshilmaydi. Aksincha, baholashni zukko kitobxon zimmasiga tortiq qiladi. G`arib timsolida ma`rifat masalasini urg`ulagan adib talqinlarida milliy qadriyatlarni anglashga bo'lgan intilish borligini his qilish mumkin:

“Vaqt yelday o'tdi. Ga'rib yeti yoshga to'lgunga qadar hamma tengdoshlari qatori o'sdi. Ammo ulardan farq qilib, ozg`in hamda hayolchan edi.

Kunlarning birida...

Kunlarning birida bolakay yalpizlar orasida, ariqcha bo'yida hayol surib yotib, noxos poyadan o'rmalab borayotgan ulkan boshli qizil chumolini ko'rib qoldi. Chumoli qari edi, gavdasining kattaligi, rangining to'qlashib,

ayniyotganligi va qoramtir ketidagi ko'pdan-ko'p ajinsimon halqalar shundan dalolat berib turardi. U bolaning shundoqqina ko'zi ro'baro'sidan o'tib borar, salom-alik o'tining uzunchoq urug'ini qiynala-qiynala sudrayotgan edi. Yengil urug' po'stlog'ining o'tkir uchi yalpiz poyasining g'o'dirish joyiga tiralib qolgan, uni sudrash uchun avvalo orqaga xiyol itarmoq lozim edi, chumoli esa joni boricha kuchangan ko'yi tortishda davom etardi. Bolani dahshatga solgan hol ham mana shu bo'ldi, u o'rnidan qo'zg'alishga ham botinmay, ko'zlarini katta-katta ochgancha qari chumoliga tikilib qoldi"¹.

Keltirilgan parchada G`aribning ziyrak nigohi – qari chumolining hayot uchun kurashayotganini fahmlashga qaratiladi. G`arib bu beozor chumolining mehnatkashligini, hayot uchun kurashuvchanligini yaxshi bilardi. Shu bois ham G`arib tevarak-atrofdagi odamlarning unga munosabati bilan qiziqar edi. Mana – adibning talqinlarida shu narsa qabarib ko`rinadi. Ya`ni G`arib timsolida jamiyatdagi odamlar xarakterini bilish mumkin. Noodatiy hol G`arib biroq hech kimga o`xshamaslikka faqat o`zligini anglashga jiddiy e`tibor qaratgan inson bo`lib shakllanadi.

Qahramon xarakteri uning hayotni qanday baholashi bilan emas, aksincha hayot qandayligini anglashi bilan ham yorqin namoyon bo`ladi. Odamzodning shakllanish boshqichlari – uch davrda kechadi. Ya`ni kecha G`arib bola edi. Bugun esa o`spirin, ziyrak nigohli o`spirin. Ertaga u katta inson bo`ladi. U hayotning barcha puchmoqlariga nazar tashlaydigan inson bo`lib shakllanadi. Demak, xaraker evolyutsiyasi ham tarbiya va tug`ma iste`dod bilan ham bog`liq. Adol opa – uni o`z holiga qo`yadi. U tabiatan yolg`iz yurishni yaxshi ko`radi. Shu bois ham Adol opa uni ha deb bezovta qilvermaydi. Aytish lozim, Adol opa timsolida hamma onalar shunday qilgan bo`lar edi. Chunki u o`z farzandining boshqalardan ayri xarakter borligini tug`ilishidanoq aniq-tiniq his qilishga ulgurgan edi.

¹ O`sha asar. 99-bet.

Hayot o'zgargan sayin insonning odamlarga, borliqqa munosabati ham kengayib boradi. Ammo hayot falsafasi, mushohodasi kengroq bo'lgan shaxs, jamiyatning muhitning, ma'lum bir davrning illatlarni teranroq anglaydi. Bu esa insonni tushinish naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Axir asrlar davomida badiiy adabiyotning predmeti bo'lib kelayotgan inson, uning ruhiy ma'naviy olami bugunga qadar tom ma'noda talqin etilgan emas. Ko'rinadiki, hayot mavjud ekan, turfa xil xarakter, turfa xil inson, uning psixologik olami o'ziga xos tarzda shakllanib boraveradi.

«G`arib bir dasta suratlar bilan qaytib keldi. Ularning bari qora qalam bilan chizilgan, barida o'sha qizning chehrasi tasvirlangan edi.

G`arib suratlarni dasturxon ustiga qator qilib qo'ydi.

- Endi qarang, - dedi u. – Mana bunisi birinchi marta ishlaganim. Tugatishim bilanoq yaxshi chiqmadi, boshqatdan boshlayman deb o'yladim. Ikkinchisidan so'ng uchinchisiga o'tdim, undan to'rtinchisiga... keyin qarasam, hammasi yaxshi chiqibdi. Eng yaxshisini olib qolib, boshqalarini tashlab yubormoqchi edim, qo'lim bormadi. Siz ayting, qaysinisi yaxshi?

Ona ularni farqlamoq uchun uzoq tikildi va yelka qisdi:

- Bilmasam, bolam. Bari bir-biridan boshqacha.

- Men ham shunga dog`man-da, - dedi kuyinib G`arib. – Bularning hammasi birikib bitta odamni hosil qilyapti, bittasini tashlab yubormasam ham kemtik bo'lib qoladigandek xuddi... Yaxshilab qarang-chi, No`mon akaning qizi Zarofatga o'xshamaydimi?

- O'xshaydi, - ikkilanibroq javob qildi ona suratdan ko'zini uzmay.

- E, o'xshaganda qanaqa deng? – G`arib to'lqinlanib ketdi. – Shunaqangi hayron bo'ldimki, asti qo'yavering. Qiziq-da, mening hayolimdagi odam shunday yonginamizda yashab, suv tashib, eshik supurib yursa... Naq bo'lmasa, o'shaning rasmini chizib qo'yishimga sal qoldi. Odamning qiyofasi har yetti avlodda bir takrorlanadi deyдилar-ku, balki Zarofat hayolimdagi qizning nevarasining nevarasimikin?

- E, tavba, - dedi ona yoqasini tuflab olib. – Hayolingga nimalar kelmaydi-ya? Bunaqa bekorchi o'ylaringni qo'y endi, o'g'lim. Odamovi bo'lib qolasan-a?

- Rost, ona. Dars paytidayam undan ko'zimni uzolmayman. Xuddi yonimda, men bilan bitta xonada juda qadim zamonlarda yashagan suvoriy xotin o'tirganga o'xshaydi. Balki To'marismi?.. qoshlari tutashib, tig`day qayrilgan, qirra burun, yuzi shiddatli, xuddi shartta o'rnidan turib, «Mana, ey Kayxisrav, sen qon istagan eding, endi to'yguningcha ich», deb yuboradigandek xuddi...»¹

Ko'rinadiki, G`arib o'zi chizgan rasmlar mohiyatida – nimalarning aks etayotganini so'z va hayol orqali anglay bormoqda. Xaraktering individual ko'rinishi bu G`aribning har bir narsani otasi aytgan mifga solib ko'rishida namoyon bo'ladi. Mif va afsonalardan yangi mif va afsonalar yaratishi G`aribning tafakkuri har kuni, har lahzada yuksaklasha borayotganidan shahodat beradi.

E`tibor bering – bitta rasmning to'rt xil shaklini chizadi. U endi rasmning qaysi yaxshi yoki yomonligidan emas, bu dunyoning butun qiyofasi – hamma narsaning bir-biriga uyg'un kelganligida deb bilishida zohir bo'ladi. Chunki bir-biriga o'xshash suratlar G`aribning bir insonning turfa xil xarakterlarini birlashtiradigan uyg'unlik va yaxlitlikda deb biladi.

Negaki, adib ushbu munozarali ona va bola dialogini yaxshi yoritishga harakat qilgan. Aynan shu nuqtada G`arib timsoliga yanada nozik sezimlar bilan oydinlik, aniqlik kiritiladi.

Bugungi badiiyat mahsuli qahramonlari tabiatida, fel – faoliyatida bashariy mazmun kasb etuvchi xislat – xususiyatlar ustivor yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. Bu borada, insonni ko'rish, tushunish hamda badiiy tadqiq etishda ikki tamoyil ko'proq ko'zga tashlanayotir. Birinchidan, jahon badiiyati tajribalari, xususan, “inson – olam bezagi”, “inson – hayoti gultoji” degan estetik kredo yangi voqelik mohiyati bilan uyg'unlikda davom ettirilayotir. Illo, inson hayot bezagi, yorug' olam chechagi bo'lishi bilan barobar, u yangi

¹ O'sha asar. 119-120-bet.

voqeliklarni yaratuvchi, jamiyat tartiblarini o'zgartiruvchi, bunyod etuvchi, hayotga va ijtimoiy voqelikka faol ta'sir ko'rsatuvchi katta va qudratli ijtimoiy kuch. Shu ma'noda insonning o'zi ham umumbashariy qadriyatdir. Ikkinchidan, inson shaxsiga, ijodiy yaratuvchilik imkoniyatlariga bo'lgan ishonch millat kelajagiga, hur Vatan istiqboliga ishonch tuyg'ulari bilan chatishib yaxlit bir markazga mujassamlashgan holda XXI asr boshlari, mustaqillik davri kishilarining ma'naviy – intellektual qiyofasini belgilab beradi. Yana bir muhim ta'kidlanadigan jihati shundaki, shaxs erki, fikr va ko'ngil hurriyati barcha zamonlarda, barcha xalqlar uchun birdek aziz. U insoniyat tarixida benazir bashariy qadriyat bo'lib kelgan. Negaki, erk, adolat, ezgulik, ma'naviy go'zallik va intellektual boylik hech qachon, hech bir zamonda irq va millat tanlamaydi. Barcha xalqlarning zulmga, zo'ravonlikka, istibdodga qarshi kurashi o'z hurriyatini, milliy ozodligi va Vatan mustaqilligini poydor etishga qaratilgandir. Insonni badiiy anglash va aks ettirish borasida realizm metodining imkoniyatlari nechog'lik kengligini, boyligini ham namoyish qiladi.

Romanda shunday jozib tasvirlar borki, uni tahlil qilish murakkab muammolarni anglashga zamin yaratadi, bu G`aribning ko'rgan tushlarini tahlil qilishda ham ayonlashadi. G`arib kunduzi ko'rgan-kechirganlarini, tushida ham ko'radi, bu unga zavq berish bilan vahima ham soladi:

«Ertasiga Adol opa uni ariqqa engashib pichirlab o'tirganini ko'rdi. Suv sharqirab, tezob oqar edi. G`arib ariqqa engashganicha uzoq o'tirdi, so'ng ruhsiz bir alpozda betini yuvib, dasturxon yoniga keldi.

- Ariq bo'yida muncha qolib ketmasang, - so'radi ona kulib. – Tag'in uxlayapsanmi debman. Suvga tushib ketadigandek bo'lib o'tiruvding.

- Ko'rgan tushimni suvga aytdim, - dedi G`arib. – Qo'shilib, qaytib kelmas bo'lib oqib ketdi.

- Nima yomon tush ko'rdingmi?

- E, juda yomon, - dedi G`arib. – Bir tushunib bo`lmaydi. Nimalardir bo`ldi. Xuddi birov gapirib turgandek... Ishqilib, kimdir gapiraverdi-yu uning aytganlarini men tushda ko`rdim.

- ...Bir balo emish, - dedi G`arib. – Shunday ko`zimning oldida turipti. Oy to`lgan pallada, u suzib-suzib naq terakzorlarning uchginasiga yetgan paytda ro`y beribdi. Xo`roz qichqirgan chog` ekan. Xo`roz ovozi tingan zahoti, huv nariyog`da, Toshkelinchak ustida osmon bo`yi keladigan qora narsa paydo bo`libdi. Yulduzli osmonda uni bemalol ko`rsa bo`lar ekan. U tez harakatlanib, samoni enlay boshladi. bir uchi oyga etay-etay deganda ikkinchi uchi erga – mirzateraklar soyasi tushib turgan joyga etib keldi... Tevarak-atrof xuddi suv quyib qo`ygandek jimib qoldi, hatto teraklarning barglari ham shitirlamasdi. Zovurdagi qurbaqalarning uni o`chdi, shabada tindi. Borliq mudhish sukunat ichida qoldi. Xuddi shu chog`da qoramtir narsaning birinchi uchi osmondan uzildi-da, uzayib-cho`zilib erga tusha boshadi...»¹

Tush – odamning xayolidagi kechinmalaridir. Tush ko`rmaydigan odam bo`lmaydi. G`aribning ko`rgan tushi – ertangi kunining bashorati emas, u Shaytonni ko`rgan bo`ladi. Shu sababli ham olamni zulmat qopladi deb uqtirmoqda G`arib. Bir qarashda G`aribning ziynatiga singan chaqqonlik boshqa` tarafda bir necha sir-asrorlarning yechimiga tomon harakatlanadi. Masalan, u har bir his va tuyg`usida bir hikmat o`qiy olish qobiliyatiga ega. U shunchaki o`ylaymaydi. Har bir o`y-u fikri unga nimanidir o`rgatadi. Ko`rganlari esa hayot mantiqini anglashga kalit vazifasini o`taydi.

Adib xarakterlararo mantiqiy aloqani uyg`unlashtirar ekan, G`aribning ona qishlog`idagi hayoti butun bir romanga arzigulik voqelikni yuzaga chiqaradi. Adib asarni qissa deb nomlar ekan. Unda romanning yukki borligini e`tirof etish joiz. Qissaning mavzuga oid – «Munojot» deb nomlanishi ham odamning hayotga bo`lgan munojotidir. Hayot va olam munojotdan iborat degan to`xtamga keladi. Ya`ni hamma oqibatda bitta mantiqqa tayanadi. U ham bo`lsa

¹ O`sha asar. 125-126-betlar.

bu olamning yolgʻonligi va ikkinchi rost olamga oʻzligini tayyorlab borishi degan aqidaga borib tutashadi. U nega ilohiy qudrat sohibi boʻlgan Yaratganning har bir moʻjzasidan taʼsirlanib yashaydi. Chunki shunday qilishlik ham Gʻarib timsolining oʻziga xosligini namoyon qiladi.

Gʻarib – odam va olam xususida tinimsiz oʻylaydigan qahramon. Mashrab bilan gaplashgan, hayot bilan tillashgan obrazning mohiyatida – maʼrifat va maʼnaviyat tushunchasi mustahkamdir.

U. Normatov qayd qilganidek: “Bizda ham falsafiy asosi jihatidan xilma – xil yoʻnalishga mansub asarlar paydo boʻla boshladi. Moddiy dunyo qonuniyatlariga tarixiylik, ijtimoiy tahlil prinsiplariga qatʼiy amal qiladigan anʼanaviy realizm bilan barobar deyarli barcha adabiy tur, janrlarda diniy, ruhoni – islomiy talqin ustuvor asarlar koʻpayib bormoqda... Bu foniy dunyoning omonat, tagi puch gʻoyalariga aldangan shaxs umrining, mehnatining bemaʼniligini qabariq tarzda, koʻpincha ramziy – majoziy timsollar vositasida butun keskinligi, fojiasi bilan koʻrsatuvchi absurt asarlar, absurt qahramonlar ham koʻpayib qoldi”.²

Darhaqiqat, shaxsni faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, koʻproq ilohiy, tugʻma – tabiiy, sirli – sehri mavjudot tarzida koʻrsatuvchi, uning ijtimoiyyot, tarixiy sharoit – tuzim, davlat, siyosat, mafkuraga boʻysinmaydigan gʻaroyib tuygʻu, xislatlarini, ong – idrokdan tashqaridagi anglab yetilmagan holatlarini keyingi davr qissachiligi ramziy tasvirlar orqali ifodalashga intilmoqda.

Adabiyotshunos B. Sarimsoqov alohida taʼkidlaganidek, “Nazariy jihatdan sanʼat asari tabiatga hayotga taqlidan yaratiladi. Biroq bu taqlid hayotning oddiy nusxasidan iborat boʻlmasligi lozim. Ijodkor yaratgan badiiy voqyelik hayot haqiqatiga mos, lekin oʻziga asos boʻlgan ana shu voqyelikdan ustun boʻlmogʻi lozim. Hayotga taqlid badiiy ijodda muayyan isteʼdod his – tuygʻusi, taffakuri, ideali taʼsirida umuminsoniy qadriyatga ega boʻlgan

² Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: “Maʼnaviyat”, 2000, 5 – bet.

yangicha badiiy hayot yaratish demakdir”.¹ Darhaqiqat, bu iqror ham “Munojot” qissasining umumiy darajasini belgilaydi. Ramziylik realistik talqin sinkretik holati XX asrning soʻnggi yillarida badiiy janrlarning barcha turlarida koʻzga tashlana boshlandi. Unda inson qalbining nozik qalb sezimlari idrok etila boshlandi. “Munojot” qissasida insonlar tabiatdagi maʼnaviy – axloqiy hislatlarni topish va aks ettirish, qahramon koʻnglida kechgan tuygʻular ziddiyatini, ongi-toʻridagi fikrlar evrilishlari maʼnosini ramzlarga koʻchirish adiblar qissayu romanlarda shaxs konsepsiyasiga oid nuqtai nazarlarni va badiiy tadqiqotchilik prinsiplarini koʻrsatadi. Zotan, har bir asarning badiiy barkamolligi qahramon psixologiyasi nechogʻlik xolis va hayotiy yorqin aks ettirilgani bilan belgilanadi. Modomiki, inson konsepsiyayasi sanʼatkor dunyoqarashi, estetik pozitsiyasi bilan uygʻunlikda namoyon boʻlar ekan, ularning mushtarakligi adibning badiiy salohiyatini tayin etadi:

«...Bir necha oy oʻtib, obroʻli sanʼat jurnalida «Munojot» degan surat eʼlon qilinadi. Zarvaraqlarning orqa tomonidagi maqolada uning yangicha uslubda va yuksak mahorat bilan yaratilganligi, taniqli rassom, qator mukofotlarning sohibi Salimxon Solijonovning bu asari buyuklik shohsupasiga koʻtarilajagi bashorat qilinadi. Behzoddan va Salʼvador Dalidan keyin bunday taʼsirchan va tiniq suratlar yaratilmaganligi, «Munojot» esa munosib baholanib, butunjahon tanloviga yuborilajagi aytiladi.

Gʻarib jurnalni varaqlagan zahoti:

- «Munojot»-ku bu, ona, -deb xitob qiladi. – Mening «Munojot»im ku axir, ona?

Ona oʻzini tutolmay yigʻlab yuboradi hamda:

- Qoʻy, bolam, qoʻy. Shu rasmni oʻlganda goʻriga qoʻyishsin, iloyo... - deydi oʻgʻlining oʻzgarishidan qoʻrqib»².

¹ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T. :”Fan”, 2004, 97 – bet.

Aytish joiz, G`aribning rasmini o`g`irlab o`z nomidan e`lon qilgan rassomdan g`arib juda qattiq ranjiydi. Axir, bu ramning ustida G`arib qanday azoblarni chekmadi deysiz? G`arib – har bir narsani aql va his orqali anglashga harakat qilib yashaydi. Bu rasmning uning qalbida qoldirgan yaxshilik tuyg`usi uni bir umr hayotda kuchli va yanada bilimli bo`lib yashashga undaydi.

Adib har bir detalga ulkan ma`no yuklaydi. Bu ma`no G`aribning xarakterini yanada yorqin yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Chunki har bir detal` G`arib xatti-harakatining mahsulidir. Ona va bola munosabatlarida – oddiy o`zbek ayolining farzandiga bo`lgan mehr-u muhabbati, sadoqati bo`y ko`rsatib turadi. Onaning farzandini qanchalik yaxshi ko`rishini har bir lavhada his qilish mumkin.

Garib ana shu kabi tuyg`ular bilan kamol topadi. Yozuvchining bosh maqsadi ham G`arib kabi bolalarning kamol topishida, ulg`ayib yurt koriga yarashi lozimligini mantiqiy urg`ulaganida ham qabarib ko`rinadi.

Xalqimizda bir kam dunyo degan gap bor. Aslida, o`n sakkiz ming olam bekami – ko`st, to`rt ko`z tugal mukammal, aslida odamlar ideal emas. Bu xildagi mulohazalarning yuzaga kelish sababi dunyo va inson haqidagi tasavvur va tushunchalarga borib taqaladi. Har bir inson, shu jumladan adib o`z e`tiqodi kamolidan kelib chiqib, bu yorug` dunyoni ham o`z tushunchasidagi yaxshi odamni ham muayyan o`z idealida tasavvur qiladi.

II BOB. QAHRAMON XARAKTERINING NAMOYISHIDA RUHIY TAHLILNING O'RNI

Har qanday mamlakatning iqtisodiy qudrati og'ir sanoatining qanchalik rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi badiiy asarlar salmog'i bilan tayin etiladi. Chunki badiiy asar millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Qahramon atamasiga adabiyotshunoslik atamaları izohli lug'atida shunday ta'rif beriladi: “QAHRAMON, adabiy qahramon – 1) asar personajlari tizimida yetakchi mavqe tutib, g'oyaviy-badiiy kontseptsiyani shakllantirish va ifodalashda muhim ro'l o'ynovchi shaxs obrazi. Terminni bu ma'noda tushunish epik yoki dramatik asar personajlarini darajalashni ko'zda tutadi: syujet voqealari qahramon atrofida uyushtirilib, boshqa personajlar u bilan bog'liq holda asar voqeligiga kiritiladi; ular qahramon bilan integrativ aloqada (hokim-tobe) bo'lib, unga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajaradi. Ko'p chiziqli murakkab syujet qurilishiga ega yirik hajmli asarlarda bir emas, bir nechta qahramon harakatlanishi ham mumkin. Bu holda personajlar sistemasi o'z ichida mikrosistemalarga ajralib, ularning markazida qahramonlardan biri turadi”¹.

Darhaqiqat, badiiy asar roman va qissa yoki hikoya bo'ladimi – har bir asarning o'z qahramoni bor. Shunday ekan bularning namoyon bo'lish qirralarini tasniflab o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nasrning bugunini tushunish va istiqbolini bashorat qilish uchun bu janrning nima uchun, qachon va qaerda paydo bo'lganini aniqlash hamda unga xos etakchi belgilarni tayin etish lozim bo'ladi. Bugungi kunda o'zbek nasri o'z taraqqiyotining polifonik bosqichiga yetib keldi. Endilikda, mavzuning dolzarbligi, voqealarning qiziqarli yoxud tilning shirali ekani asarni o'qishli qilgani holda, uning umrzoqligini ta'minlay olmasligi mumkinligi anglab etildi. Zamonaviy o'zbek nasri muallifidan har bir qahramonini tushunish va aks

¹ Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lurati. –T.: «Akademnashr» 2010 y. 277-bet.

ettirishning birovnikiga mutlaqo o'xshamaydigan konsepsiyasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Bu borada faol qalam tebratayotgan U.Hamdam, I.Sulton kabi nasrnavislar ijodini keltirish mumkin. Ulug`bek Hamdam badiiy izlanishlarida – turfalik ko'zga tashlanadi. U xar bir asarida qahramon ruhiyatiga to'laligicha kirib tasvirleydi. Adibning 2003 yilda yozilgan «Isyon va itoat» romanida Akbar xarakterini to'la namoyon qilishga erishgan. Unda Akbarning safari natijasida ko'zdan kechirgan ziddiyatli munosabatlar – og`ir yo'qotishlar yozuvchining o'y-xayollari mahsuli emas, u hayot bilan uyg'un tarzda yaratilgan voqelik sifatida ko'z o'ngimizda zohir bo'ladi. Akabar – ilm izlagan kishi bo'libgina qolmay, u baxt va iqbol yo'lida tinimsiz kurashuvchan qahramon bo'lib tasvirlanadi.

Ma`lumki, badiiy asarni tahlilga tortayotib, psixologik tasvirning turli asarlarda turlicha vazifalarni bajarishini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Ba`zi asarlarda ruhiy tahlil va psixologik detallar unchalik ko'p emas, faqatgina muallif niyatini amalga oshirishga yordamlashib yuborish uchun ishlatiladi. Bunday hollarda biz faqat psixologik tasvir elementlari haqida gapirishimiz mumkin. Ayrim hollarda esa, psixologik tasvir matnning salmoqli qismini band etish barobarida boshqa unsurlarga nisbatan mustaqillik kasb etadi va asar mazmunini tushunishning favqulodda muhim jihatiga aylanadi.

Bizningcha, bunday asarda alohida badiiy sifat – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm bu badiiy tasvir vositalari ko'magida qahramon ichki olami: uning fikrlari, kechinmalari, xohishlari, hissiy holatlarini batafsil tasvir orqali kashf qilishdir. Psixologik tasvirning uch asosiy formasi mavjud bo'lib, ichki olam tasviridagi barcha konkret usullar alal-oqibat o'shalarga borib taqaladi. Bu uch formaning ikkitasi nazariy jihatdan rus adabiyotshunosi I.V.Straxov tomonidan ajratib ko'rsatilgan edi: “Psixologik tahlilning asosiy formalarini xarakterlar tasvirining “ichki” – harakatdagi shaxslarning ichki dunyosini ularning ichki nutqlari, xotira obrazlari va tasavvurlari ko'magida badiiy

ifodalash; “tashqi” – yozuvchining nutqni, nutqiy o’zini tutishning ifodaviy xususiyatlarini, mimika va psixikaning boshqa tashqi ko’rinishlarini ruhiy tahlil qilishi kabilarga ajratish mumkin”¹.

Psixologik tasvirning birinchi shaklini shartli ravishda bevosita, ikkinchisini esa bilvosita deb ataymiz. Chunki uning ko’magida biz qahramon ichki olamini bevosita emas, balki ruhiy holatning tashqi belgilari orqali bilib olamiz.

Psixologizmning asosiy usullari haqida gap ketganda, birinchi navbatda, yozuvchining hikoya qilish usuliga to’xtalib o’tish kerak bo’ladi. Inson ichki olamining tasviri birinchi shaxs tilidan ham, uchinchi shaxs tilidan ham berilishi mumkin. Bu hikoya qilish shakllarining har biri turlicha imkoniyatlarga ega. Birinchi shaxs tilidan hikoya qilish qahramon ruhiy suvratining haqiqatga yaqin illyuziyasini yuzaga keltiradi. Chunki o’zi haqida insonning o’zi gapirayapti. Ko’p hollarda birinchi shaxs tilidan hikoya iqror xarakterida bo’ladiki, bu o’z navbatida ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Hikoya qilishning bu shakli ko’pincha asarda bosh qahramon bitta bo’lib, muallif va kitobxon uning ongi va ruhiyatidagi o’zgarishlarni kuzatib borayotgan hollarda qo’llaniladi. Qolgan personajlar ikkinchi darajali bo’lib, ularning ichki dunyosi aytarli tasvirlanmaydi.

Uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish ichki dunyo tasviri bobida kengroq imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu shunday usulki, uning yordamida muallif kitobxonni hech qanday cheklovlarsiz personaj ichki dunyosiga olib kiradi va ruhiyat iqlimlarini chuqurroq, batafsilroq ko’rsatadi. Qahramon qalbida muallif bilmaydigan sir yo’q – u qahramon haqida hamma narsadan voqif, muallif ichki jarayonlarni miridan-sirigacha tahlil qilishi, tuyg`ular, fikrlar, kechinmalar o’rtasidagi sabab-shart aloqalarini tushuntirishi ham mumkin. Hikoyachi qahramonning o’z-o’zini tahlil qilishini sharhlab o’tishi, hatto

¹ Straxov I.V. Psixologicheskiy analiz v literaturnom tvorchestve: posob. dlya stud. /V 5 ch./ - Saratov: Izd. Saratovskogo universiteta, 1973. –CH. 1. S. 14.

qahramon o'zi ilg'amagan yoki tan olishni istamagan ruhiy kechinmalar haqida so'zlashi mumkin.

Bir vaqtning o'zida roviy qahramonning tashqi o'zini tutishini, mimikasi, plastikasini psixologik tahlil predmetiga aylantirishi ham ehtimoldan xoli emas. Uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish asarga psixologik tasvirning turli usullarini jalb etish imkonini beradi. Bunday hikoya to'qimasiga ichki monologlar, oshkora iqrortarlar, kundalik va maktublardan parchalar, tushlar, gallyutsinatsiyalar yengilgina qorishib ketaveradi.

Uchinchi shaxs tilidan hikoya badiiy vaqt bilan erkin munosabatga kirisha oladi, qahramon ruhiyatida kechadigan oniy holatlar tahlili chog'ida vaqt uzoq muddatga to'xtab qolishi yoki asarda tasvirlanayotgan uzoq muddatli voqealar haqida qisqa ma'lumot berilishi mumkin. Bunga syujet tarmoqlarining aloqasini misol keltirish mumkin. Bu muallifga umumiy hikoya qilish tizimida psixologik tasvirning salmog'ini orttirish, kitobxon e'tiborini voqealar tafsilotidan his-tuyg'ular tafsilotiga ko'chirish imkonini beradi. Shuningdek, bunday sharoitda psixologik tasvir o'zining maksimal detallashtirilgan darajasiga ko'tariladi: daqiqalar va hatto soniyalar ichida yuz beradigan ruhiy o'zgarishlar tasviri bir necha sahifani egallaydi. Nihoyat, uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish orqali bir emas, bir necha qahramonlar ichki olamini tasvirlashga erishiladi.

“Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g'oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo'qsa, asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur etadi”¹, - deb yozadi akademik B.Nazarov.

U.Hamdamning qahramonlar xarakteristikasi ustidagi izlanishlarining ajralib turadigan o'ziga xosligi qahramonning avvalboshdanoq ekzistentsial kayfiyatda ekanligida ko'rinadi. Qahramon hayoti davomida ko'rgan-kechirganlaridan xulosa chiqara-chiqara, odamlardan “begonalashib” boradi. Asrlar mobaynida echimini topmagan masalalardan charchagan paytlari “o'ziga

¹ Nazarov B. Davr va qahramon // O'zbek adabiy tanqidchiligi. –T.: Fan. 1979. 96, 215 – betlar.

qamalib olgisi” keladi. Xuddi shu erda tasvirlanayotgan barcha voqea-hodisalar ruhiylashadi va ruhiy tahlil foydasiga ishlaydi.

Adabiyotshunos olim K.Jo’rayev e’tiroficha: «Isyon va itoat»dagi voqealar tasviri ichida ham yozuvchi shaxsi yaqqol ko’rinib turadi. Faqat ijodkorning mahorati shundaki, u yaratgan obrazlarning hammasi har xil, biri ikkinchisiga o’xshamaydi, individual, o’ziga xos. Ular she’riyatdagi lirik qahramon yoki timsollar prototipi emas. Ammo shu bilan birga yozuvchi o’sha qahramonlari ichida, qalbida, ular bilan maslakdosh. Qahramonlarining ichki monologlarida ekzistentsial adabiyot vakili, yozuvchi, dramaturg, esseist, aktyor va teatr rejissyori Al’bek Kamyu eafasi eshilib turganday, uning tanqidiy ruhi, isyonkor absurd tuyg`usi sezilib turadi»¹.

“Isyon va itoat” romanida qahramonni tipiklashtirishning lirik tamoyili ustunlik qiladi. Akbarning psixologik o’zini tutishi realistik jihatdan to’la shartlangan. Yozuvchining personajlar ichki dunyosini ziddiyatlar, tangliklar, azob-og`riqlardan iborat ruhiy holatlar, og`ir kechinmalar orqali chizishi ham shundandir. Biroq bu qahramonlarning o’zlari uchun emas, balki ularning g`oyaviy-ma`naviy izlanishlarining intensivligi va inson tabiati bitmas-tuganmas sinoatlar makoni ekaniga urg`u berish maqsadida qilingan. Bilamizki, U.Hamdam qahramonlarining ichki dunyosi hamisha ikki qutb, bir-biriga zid ikki hol ko’lamida harakatlanadi. Ruhiyat murakkabliklariga bunday – iloji boricha ko’lamdor yondashish, chuqurroq kirib borishga intilishlik uni mutlaq anglab bo’lmaslikni to’la tushunish orqali yuzaga chiqadi.

Psixologik detallar inson ichki dunyosini gavdalantiradi. Qalb tebranishlari – fikrni to’liq aytoymasdan, faqat ishora bilan cheklanish usuli yoki “og`zaki bo’lmagan dialogga mansub unsurlar: kinesik holatlar – xatti-harakat, mimika va pantomima elementlari hamda kulgi, yig`i, nutq tempi kabi paralingvistik elementlar psixologik detal shaklini ifodalaydi (I.V. Straxov) yoki personaj dinamik portretining detallari (mimika, plastika, ma`noli harakatlar,

¹ Jo’raev K. Yozuvchi isyoni va itoati. Bu haqda qarang: internet materiali: www.ulugbekhamdam.uz

tinglovchiga qaratilgan nutq, fiziologik o'zgarishlar) deya nomlanadi. Ruhiy tavsifning umumlashma-belgili shakliga nisbat beradigan bunday detalni adabiyotshunos A.P. Skaftimov "hislarning verbal (og`zaki) belgilanishi²" deb ataydi.

Misol uchun, romandagi ijobiy obrazlardan biri tabib inson DNKsi ustida tadqiqotlar olib borayotib, o'zi ishlaydigan bo'lim boshlig'i, professorning g'alamisligini, insoniyatga dushmanligini sezib qoladi. Shuning ortidan qamoqqa "yo'llanma" olgan bo'lishiga qaramay, keyinchalik professorning "Grippning davosini topishga umrni sarflab o'tirishning hech hojati yo'q. Odamzod dardini olaman, deb ovorai sarson bo'lib, alal-oqibat na boshqalarga, na o'ziga yordami tekkanlarni ko'p ko'rganmiz. Ha endi, odamlarning o'zi ham bunga arzimaydi-da. Qaytaga grippga o'xshagan kasalliklarni vaqti-vaqti bilan kuchaytirish, tarqatib borish kerakki, o'shanda mo'rtroqlar-u zaifroqlardan tozalanib turardik. Bu yog'i dori-darmondan ancha-muncha pul ishlab olish mumkin bo'ladi..." degan gaplaridan achchiqlanmay ham qo'yadi. Bu yerda umr bo'yi o'z-o'zi bilan kurashib kelgan insoning itoatga kelishi, psixologik detal yuz ochgan.

Romandagi personajlarning aksariyati (ikkinchi darajali qahramonlar) J.Joys asarlaridagi personajlarni eslatadi. U.Hamdam psixologik tasvirning portret xarakteristikasi, dialogik sahanalar, bosh qahramon xarakterini emperik ifodalash, mimika, jest, so'zlar talaffuzidagi o'zgarishlar kabi usullaridan foydalangan. Diana, Larisa xola, Tursunboy jontalash, Marat, Iskandar, Mahkam, Farida, Sadir kabi personajlar asosan Akbar va qisman Tabibning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qilishgan.

Personaj xarakterini ochish psixologik tasvirning birlamchi muhim vazifasidir. Yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, gavda holati kabi noverbal xatti-harakatlar ko'pincha personaj ko'nglida kechayotgan hislardan guvohlik beradi. U.Hamdam "Isyon va itoat" romanida Akbarning nafaqat tashqi

² Skaftimov A. P. Nравственные искания русских писателей. – М., 1972. S 437.

qiyofasini, balki tashqining nuqsi orqali shakllangan ruhiy olami – qalb dramtizmini chizishga bag`ishlaydi. Yozuvchi ayniqsa, qahramonlarining ahvoli-ruhiyati, ichki holati yuzaga toshgan paytini mohirlik bilar tasvirleydi:

“Akbarning oyoq-qo’llari qaqshab og`rirdi. Ular kaltak zarbidan chunonam bo’lmasdi. Garchi zo’ravonlar ketgan kezda, yarim yo’lda fikrini o’zgartirib qaytib kep qolsa nima bo’ladi? Ustiga-ustak Akbarga mardlik qilib bir bog`lam pul tashlab ketishgan bo’lsa... Akbar tishini tishiga qo’yib harakatga keldi, nariroqda turgan stul oldiga bordi-da, unga suyanib o’rnidan turib oldi va shunda chap qo’lidagi kuchli, chidab bo’lmas og`riqqa duch keldi: u singan edi...” (21-bet.)

Tashqi ko’rinish ba`zida personaj xarakteriga ishora qiladi. Muallif Akbarning portretini chizar ekan, uning haqiqiy o’zbekligini, soddaligini, pokdomonligini ko’rsatish uchun boshqalardan ayricha ekanligiga shama qiladi. Uning ko’nglidagi isyon hech narsadan qoniqmaslik va buning ortidan kelib chiqadigan xatti-harakatlardan iborat edi. Kitobxon roman boshidayoq qahramonning g`ayrioddiylikidan voqif bo’ladi.

Personaj portreti – bu uning tashqi ko’rinishi: yuzi, jussasining statik yoki dinamik (yuzdagi ifoda, ayniqsa ko’z, mimika, xatti-harakat, qiliq va yurishidagi o’ziga xoslik) tasviridir; personaj libosi – portretning bir qismidir. Portretning ba`zi bir tabiiy qirralari badiiy asarda muhim o’rin tutadi. Ular kitobxonda personajning qaysi millatga mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishi haqida dastlabki tasavvurlarni uyg`otadi. Bunda uning liboslari, ma`naviyatidan dalolat beruvchi manerasi katta ahamiyat kasb etadi:

“Ulkan chuqurlikda joylashtirilgan va chor tomoni panjara bilan o’ralgan bu mashina go’sht maydalaydigan bahaybat “myasorubka” ekanligini Akbar endi angladi. Tiliga duo ko’chib chiqdi. Ko’z oldida o’g`li va qizi namoyon bo’ldi. So’ng ular achchiq yoshga to’ldi.

- Hali vaqt bor, tiz cho’kib yolborsang, tirik qolishing mumkin, o’zbek!.. – orqadan “Boss”ning ovozi eshitildi.

- O'zbekligimdan tashqari yana men erkakman!!.. – baqirdi Akbar unga behuda hamla qilib” (17-bet).

Ushbu sahnadan ko'rinib turibdiki, o'lim yoqasida turgan Akbarning portreti dinamik tarzda chizilgan: uning qiliqlari, o'zini tutishidagi alohidalik psixologik tasvir orqali amalga oshirilgan. Aynan shu qilig'i va so'zlaridan so'ng “Boss”ning “erkak”ligi tutib qoladi va uni o'ldirmasdan, qo'yib yuborishni buyuradi.

Qahramon portretining o'ziga xosligi asarning qaysi adabiy janrga mansubligiga ham bog'liqdir. Dramada muallif asosan personajning yoshi, harakatdagi shaxslar ro'yxatida tutgan mavqei, o'zini tutishi bilan bog'liq detallarni remarkada ko'rsatib o'tish bilan cheklanadi. Personajni mayda tafsilotlari bilan tasvirlash eposga xos xususiyat bo'lib, aynan epik asarlarda qahramon portreti favqulodda batafsil ko'rinish oladi, uning jamiyatdagi mavqei va xarakteri haqida mufassal taassurot uyg'otadi.

Adabiy qahramon zamonaviy nazariyotchilar nazdida “harakat, kechinma, fikr sub`ekti” (L.V. Chernets), odat va qiliqlar, mulohaza va noverbal xulq-atvor jamuljamidan tug'iladigan ko'ptarkibli mukammal strukturadir. Badiiy asar dunyosining portret, peyzaj, interer kabi komponentlari syujetni tashkil etadigan voqealar va personajlarni tasvirlash bilan turli darajada aloqadordir. Portretni tasvirlash yo'llari, yo'sinlari ham rang-barang. Epik asarlarda portretlarni ekspozitsion (saraxbor) va dinamik (o'suvchan, rivojlanuvchan) portretlarga ajratish mumkin. Ekspozitsion portret – bu odatda, asarda ilk marta ko'rinish bergan qahramon tashqi ko'rinishidagi detallarning birma-bir sanab o'tilishidir.

Ekspozitsion portret qator tipiklashgan xarakteristikalar yig'indisidan iborat bo'lib, personaj ruhiy holatining qandayligidan qat'iy nazar, o'zida shaxsning o'zgarmaydigan, barqaror sifat va xislatlarini aks ettiradi. U badiiy umumlashtirilgan bo'lib, ayni paytda, asosiy qahramonlar taqdiriga ta'sir etuvchi kuchlarning alomatlarini ham o'zida ifodalaydi. Bunga romandagi Tabib portretini misol qilib keltirsa bo'ladi:

“Tabiblik o’zi shunaqa: bir kun bemorga qo’shilib yig`lasang, boshqa kun u bilan birga kulasan. Tursunboy jontalashning o’limi tabibni qanchalik ezgan bo’lsa, Nigina qizning kundan-kunga sog`ayib borayotganligi shuncha quvontirardi. Ha, tabib shunaqa edi. Har bitta kasalni davolay boshlqar ekan, o’sha bemordagi dardga qarshi o’zi jangga kirishar, yengib chiqqanda hammadan ko’ra ko’proq sevinar, yengilganda esa o’zini qo’ygani joy topolmay qiynalar, o’zini – insonni ojiz sezib tipirchilardi” (59-bet).

Asliy-psixologik portret nafaqat qahramon tashqi qiyofasini, balki uning shaxs sifatidagi tadrijiy dinamikasini ham aks ettiradi. Bunday portret badiiy asarlarning markaziy qahramonlari uchungina xos. Tavsiflanish yo’siniga qarab psixologik portret pinhoni yoki ochiqdan-ochiq tasvirga ega bo’lishi mumkin. Umuman, portretlarni tasvirlash usullari turli-tuman bo’lib, unda muallifning xolis xarakteristikasi ham, qahramonning nutqida anglashiladigan taassurotlari ham, ichki sub`ektiv idroki ham ko’zga chalinadi. Akbarning roman oxirlagani sayin shaxs sifatida intensiv shakllanib borishi yozuvchi tomonidan ochiqdan-ochiq ruhiy tahlil orqali tasvirlangan-ki, alal oqibat uning o’zi Ustozlik maqomiga ko’tariladi, Iskandarga yo’l ko’rsatadi.

Psixologik portretda muallifning asosiy diqqat-e`tibori qahramon xarakterini ochadigan, o’y-kechinmalarini ifodalaydigan qabariq (noyob) detalga qaratiladi. Obrazni ruhiy va axloqiy-ma`naviy mazmun bilan to’ldiradigan bunday detal` portretda o’ziga xoslik kasb etadi. U orqali qahramonning ruhiy belgilari aniq-ravshan ko’rinadi:

“Odamga ruh hayotidan judayam oz ilm berildi”, deyiladi muqaddas kitoblarda.

“Ehtimol shu bexabarlikdadir inson iztiroblarining bir uchi, tag`in kim biladi deysiz”, - deb yashadi butun umr Akbar. Endi... qachonki uning bag`rida gurillab yongan isyon gulxani o’chgach, g`ofillik ham uni qiynamay qo’ydi. Qaytaga, isyon o’rnida tug`ilgan o’sha kayfiyat – o’sha itoat... ruhida qandaydir bir ma`rifat bor edi. Ma`rifatki, g`ofillikni, uning alamini yuvib yuborishga

qodir... Ma`rifatki, butun umr jizg`anagi chiqib kuygan ko`ngilga, qio`ib ketgan ko`ngilga bir yengil, bir sarin, bir yoqimli shabbodaday ta`sir qiladigan...” (133-bet.)

Razm solinsa, shu birgina parchadan inson qalbi evrilishlarining tasviri personaj xarakteristikasida qanchalik katta ahamiyat kasb etishini sezish mumkin. Personaj nutqida anglashilayotgan muallifning xolis xarakteristikasi ham, Akbarning ichki sub`ektiv idroki ham portretda yaqqol namoyon bo`layotir. Muallif birgina itoat detalidan foydalanib qahramon ruhiyatining iqlimini tahlilga tortmoqda.

Dinamik portret, asarda qahramon tashqi qiyofasining batafsil tasviriga yetarli o`rin ajratilmagan hollarda, roman bo`ylab sochilib ketgan alohida detallar shaklida bo`y ko`rsatadi. Yozuvchi qahramonni yangi qirralar bilan boyitish, tashqi ko`rinishi va o`zini tutishidagi o`zgarishlarni qayd etish maqsadida portretga qayta-qayta murojaat etishi mumkin. “Isyon va itoat” romanining avvalida yosh, qiziqqon Akbarning qamoqqa tushib qolishi tasvirlansa, syujet siljishi davomida u ulg`ayadi, farzandli bo`ladi, asar so`ngiga kelib ustoz – Tabib qatori bo`lib qoladi. Muallif o`z qahramonini shunchalik chuqur biladiki, tasvir va portret bir yo`la berib borilaveradi. Portretni bu tarzda berish xarakter tabiiylikini belgilaydi, uni jonlantirib yuboradi.

Ayrim hollarda portret boshqa bir personaj nigohlari orqali ham berilishi mumkin. U holda portret o`zlashtirma taassurotlarni uzatadi. Bunday portret shunisi bilan ahamiyatliki, u bir vaqtning o`zida personajni ham, unga qarab turganlarni ham xarakterlaydi:

“..Diana Akbarning quloq chakkasida paydo bo`lgan bir-ikki oq tolalarni payqadi-yu, o`zida – shaxsiyatida, qarashlarida qittay bo`lsa-da bir cho`kishni, qartayishni, taqdirga tan berishni ko`rmadi, sezmadi. Aksincha, ayol bu g`alati sehriga ega erkakning dunyosiga qanchalik kirgani sayin unga shunchalik yaqinlashib, bog`lanib, mehr-muhabbati ortib borardi” (108-bet).

Adabiy portretlar – xarakterlar badiiy tasvirining asosiy vositalaridan biri sifatida muhim ifodaviy funksiyalarni bajaradi: xarakterga “kirish” hisoblanadi; uning muhim qirralarini belgilaydi; xarakter to’laligiga, butunligiga aniqlik kiritadi; birgina personajning bir yoki bir nechta portreti orqali xarakterning jonsiz yo dinamikligi ko’rinadi.

U.Hamdam qahramon haqidagi to’la tasavvurni kitobxon fantaziyasiga ishonib topshiradi-da, uni tasvirlash bobida bor-yo’g’i bir nechta yorqin detal bilan cheklanib qo’ya qoladi. Yozuvchining diqqati personajning alohida qirralariga qaratilgan bo’lishi mumkin, qolganini esa o’zimiz, xayolimizda tiklaymiz, chizib olamiz.

Xullas, psixologik tasvir orqali qahramonning ma’naviy dunyosi aniq-ravshan ko’rinadi. San’atkor obrazning qalbini, ichki dunyosini chuqur yoritish uchun portretni harakatda berishga tirishadi.

Barchamizga ma’lumki, keyingi yillarda yaratilayotgan, xususan epik janrlar orasida ikmoniyati, mavzu doirasi anchayin keng romanda ramziy-majoziy talqin yetakchi unsurlar sirasiga kirib bormoqda. Aslida, avvalliga nazmiy asarlarda, ya’ni jadid adabiyotigagacha bo’lgan davr oralig’ida hissiy kechinmani (bu hol ko’proq lirikada) hayotiy ma’no va falsafiy-ruhiy tasavvurlarni tabiat jonzotlari timsolida, ba’zan uyg’un ravishda idrok etish ana’nasi kuchaygani barchamizga oydek ravshan. Buning yorqin misolida Gulhaniy masallari, Turdi Farog’iy, So’fi Ollohyor lirikasida ko’rishimiz mumkin. Adabiy tadrij davom etgani bois, XX asr ibtidosida nasriy asarlar urf bo’la boshlagan bir davrda Qodiriy, Cho’lpon kabi zabardast nosirlar ijodida bunga o’zgacha yondashildi. Xususan, shakllangan adabiy an’analar istiqlol davriga kelib o’zgacha mohiyat kasb etdi. «Bizdagi adabiy-ilmiy talqinlar va tahlillar doirasi kengaymoqda; jahon adabiyotshunosligidagi o’tkinchi va etakchi tamoyillarga qiziqish kuchaydi» (B.Karim). Ayni ushbu e’tirofda jon bor. Endilikda badiiy shakl (roman) butun murakkabligicha ramz va majozga yo’g’irilib, aynan shu kechinma orqali inson ruhoniyligini – jamiyat

hayotini, odamzod tabiatini tasvirlashga alohida e`tibor berilmoqda. Bu borada «tadrijiy epik ko`lam» desak to`g`riroq bo`lar, negaki har qanday yangilik avvalida o`sha davr kayfiyatidan kelib chiqib iste`molga kiritiladi. Demak, badiiy talqinlarda real hayotning qaynoq nafasini ramzlarda aks ettirish ham bir san`at ekanligi ayonlashadi. Bu xildagi fikrlarni o`rtoqlashishdan maqsad shuki, adiblar ijodida tamomila ramziy-majoziy tasvir shartliligi, yaxlitligi o`ziga xos tarzda ifoda etila boshlandi. X.Do`stmuhammad, O.Muxtor, U.Hamdam, T.Rustam kabi romannavislar badiiy izlanishlarida, N.Eshonqul, E.A`zam, S.Vafo kabi iste`dodli qissanavislar ijodida u yoki bu darajada ramziy-majoziy talqin orqali inson va davr kayfiyati, bir so`z bilan aytganda o`y-kechinmalarini tasvirlash jiddiy ko`zga tashlanadi. Aynan, yuqoridagi adiblar qatorida yozuvchi U.Hamdam «Isyon va itoat» romanida davr kayfiyati va inson ruhiyatini real hayot va ramziy-majoziy talqinni – sinkretik (qorishiq) holda tasvirlaydi. Davr muammolarining tub ildizi – isyon-u itoatning ibtidosi Odam Ato va Momo Havo davriga borib taqalishini, ildizi ana shu oraliqda bo`y ko`rsatishini xilma-xil personajlar tabiati, taqidiri, qismati asosida chizishga musharraf bo`ladi. Roman janri bo`yicha jiddiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimizdan biri Islomjon Yoqubov e`tiroficha «Roman olamning o`ziga xos siqiq manzarasini mujassamlashtira boshladi. Ko`p planli mazmun, sertarmoq sujet, kompozitsion rang-baranglik, jahon epik tajribasiga xos tasviriy vosita va usullarni qo`llash, shakliy ixchamlikka intilishni o`zlashtira bordi»¹. Darvoqe, olimning ushbu fikrini «Isyon va itoat» romaniga ham mengzash mumkin bo`ladi. Shu jihatidan olib qaraydigan bo`lsak, U.Hamdam romanlarida «kompozitsion rang-baranglik»ning mantiqiy tadriji ko`zga tashlanadi. Binobarin, romanda o`zligini, tabiatini, o`jizligini anglash sari intilayotgan, umuminsoniy muammolar xususida mulohaza yuritayotgan Tabib, yolg`izligidan siqilib, real hayotda ham ko`plab odamlar – do`st-u birodarlari orasida dili kemptikligidan iztirobga tushayotgan Larisa xola, umrini mehnatga bag`ishlagan, o`zini asrab-avaylamagan

¹ I.Yoqubov. Badiiy-estetik so`z sehri. –T.: «FTM nashriyoti». 2011. 283-bet.

Tursunboy jontalash, boylik, rohat-farog`at quchog`ida yashashni maqsad qilgan Mahkam, o`z go`zalligiga shaydo bo`lib, guldek umrini xazonga aylantirgan va bu yo`ldan qaytishga jazm etgan Diana kabi personajlar asar komponentlarida etakchilik qiladi. Bularning taqdirini, kelajagini, hayotdagi o`rnini, jonli, real lavhalarda tasvirlagan yozuvchi har biriga alohida mehr bilan yondashadi. Chunki bani inson baxtli yashash uchun intiladi, bu borada o`zligidan kechishga ham tayyor yashaydi. Sababki, xatolardan xulosa chiqarib yashash, shu yo`l bilan o`z hayotini o`nglashga intilish har bir ojiz bandaning am`molidir. Biroq ba`zan qismatga ko`nikish uchun qanchadan-qancha zahmatlar chekilishi «Isyon va itoat»da o`z tajassumini topgan.

U.Hamdami romanlari uslubi bo`yicha jiddiy tadqiqot olib borgan yosh olimani Manzura Pirnazarova qayd etishicha: «Bizning adabiyotshunosligimizda, fikrimizcha, «Isyon va itoat» romanidagi badiiy-falsafiy xulosalar ko`lami «Muvozanat» asaridagi kabi keng va salmoqdor emas. Biroq, muallif romanda o`ziga xos shakliy-uslubiy yo`lni tanlagan. «Quroni Karim» sura va oyatlari, diniy-ilohiy mazmundagi rivoyatlarni romanning asosiy kechayotgan zamon va makondan mustaqil tarzda, ya`ni yondosh bayon qilgan. Shunga qarmasdan, ular romanning badiiy maqsadini ochishda o`ziga xos uyg`unlikni yuzaga chiqaradi»². Darhaqiqat, olimaning ushbu fikriga yana shuni qo`shimcha qiladigan bo`lsak, romanga kiritilgan ilohiy-diniy kiritmalar asar kompozitsiyasida muhim o`rin egallaydi, xarakter ruhiyatini, uning isyon qilib itoat yo`liga tashlagan qadamining ASL sababi qay o`rinda boshlanganiga, Odam Ato va Momo Havoning bilib-bilmay Adan bog`idan chiqarilishini, hamda o`z ma`naviy-ruhiy-ijtimoiy muvozanati sari qadam tashlashida qanday tarixlarni boshdan kechirishi, iztiroblarga muhtalo bo`lishi holatlarini anglashga yaqindan yordam beradi. Chunki ayni shu kabi badiiy kiritmalar orqali yozuvchi badiiy niyati ham, davr kayfiyati ham uyg`unlikda yuzaga chiqadi. Demak,

² M. Pirnazarova. Hozirgi o`zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Filologiya fanlari nomzodi ...diss. avtoref. T., 2006. 14-bet.

yoʻzuvchi odamzotning kuchli va ojiz jihatlarini turli rakurslarda ifoda etganligida koʻrinadi. Jumladan, Akbarning bir tarsaki deb, uch yil ozodlikdan mahrum etilishi va belgilangan koloniyada jazosini oʻtashi, keyinchalik ustoz Komil tabibning maslahatiga koʻra uzoq oʻlkaga sayohatga chiqishi, butun umri davomida qilgan gunohini isyon yoʻli bilan yuvib, Xudodan magʻfirat soʻrab va nihoyat itoatga kelishdagi xilma-xil hayotiy manzaralar real ifoda etilgan hamda roman voqeasining izchillikda bayon etilishi yoʻzuvchining jiddiy falsafiy gʻoyani ilgari surishidan bu borada inson xususidagi ilmlarni teranroq anglab etganligidan darak beradi.

Munaqqid S.Sodiq «Isyonning hududi bormi... itoatning-chi?» maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Isyon va itoat» romanida inson qalbining nozik jilolari: feʻl-atvori, ruhiyati, koʻngil talpinishlari badiiy talqin etilganligini, asarning falsafiy-psixologik tabiatini yetarlicha izohlay olmaydi»¹. Bu esa biroz bahstlab mulohazadir. Negaki, roman janri kechagiga nisbatan uning janri ichki tabiati, qiyofasi, shakli oʻzgardi. Bir butun davr hayotini, inson qismatini minglab sahifalarga muhrlagan Dostoevskiy, Tolstoy, Sholoxov kabi soʻz sanʼatkorlari anʼanalari yillar oʻtishi bilan ijodiy izlanishlar natijasida tobora ixchamlashib, goʻzal bir koʻrinishga kelib qoldiki, olimlarimizning baʼzi birlari hali hamon oʻsha «temir qoida» soyasidan nariga oʻtolmay fikr yuritish hollarini ham kuzatamiz. Munaqqidning «inson feʻl-atvori jilolarini etarlicha izohlay olmagan» degan fikri biroz tahrir talabki, roman falsafasi qatiga singdirilgan, yashirilgan mohiyat-mazmun, tiriklikning maʼnisi xususidagi teran oʻy-mushohadalar xususida bosh qotirgan Tabib va Akbar, Larisa xola va Iskandar xarakterlarida oʻziga xos, hayajonli, qaygʻuli tarzda yoritilishidan koʻz yumib boʻlmaydi, albatta! Inchunun badiiy makon va zamonda oʻz taqdirini yaxshilashga intilayotgan personajlar tabiatida ham isyon va itoatning mungli kuy yangligʻ nidolari, achchiq iztiroblari, alamli lahzalari real mohiyat kasb eta borgan.

¹ S.Sodiq. Ijodning oʻttiz lahvasi. –T.: «Sharq», 2005. 76-b

Aytish joizki, adibning «Isyon va itoat» romani borasida turli xil tanqidiy qarashlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi, albatta! S.Sodiq, Otauli, H.Karimov talqin va tadqiqotlarida deyarli bir xil fikrlarni uchratamiz. Barchasi bir nuqtada «romaniy tafakkur unsurlari Muvozanat romani kabi etarli emas. Asarning tili va ifoda uslubi o'ziga xos bo'lgani bilan xarakterlar yaxshi ochib berilmagani»ga urg'u beradi (ta'kid bizniki – O.Xudaybergenov). Darvoqe, adabiyotshunos olim B.Karimning roman poetikasi xususidagi fikrlari ayni yuqoridagi tanqidiy hodisalar yuzasidan jiddiy bahslar uyg'onishiga zamin hozirlaydi. Olim shunday deydi: «Badiiy asar poetik tadqiqotga munosib bo'lgan taqdirdagina unga adabiyot-chi olimlar takror va takror murojaat etishi mumkin. Bunda talqinchilarning hayotni, san'atning tilini, poetik-badiiyat qonuniyatlarini, san'at asarining qarashlari saviyasidan yuksak bo'lsa, talqinda o'ziga xos ilmiy kashfiyotlar yuzaga chiqadi... San'at va adabiyotdagi favqulodda, orginal asarlarni tushuna bilish va tushuntira olish uchun olim san'atkor-ijodkor dard-u dunyosiga bir qadar yaqinlashuvi lozim»¹. Darhaqiqat, olimning bu xildagi yondashuvi bugungi roman poetikasi va ruhiy olamini kashf etishda, asar jozibasini sinchiklab o'rganishda muhim faktor sanaladi. Chunonchi, roman badiiyatini ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil qilishga kirishgan yuqorida nomlari keltirilgan munaqqidlar maqolalarida «yozuvchi dardi va anglagan dunyosi» parda ortida qolib ketish hollari kuzatilganidek, sof san'at asari sifatida baholanishiga soya solishi hech gap emas. Inchunun, biz esa tadqiqot ishimizda romanning psixologik jihatlarini o'rganishni maqsad qilganmiz. Shu boisdan, romandagi qo'llanilgan psixologik lavhalar, ya'ni xarakterni yoritshidagi yozuvchi idealiga ko'proq e'tibor qaratishni lozim topdik.

Bugungi kunda fol'klor va uning badiiyati bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimizdan biri J.Eshonqul shunday yozadi: «Inson ruhiyati juda keng olam bo'lib, undagi hissiyot va tuyg'ular ikki xil shaklda o'zini namoyon etadi. Birinchisi anglangan, ma'lum mantiqqa bo'ysungan tashqi dunyoga

¹ B.Karimov. Abdulla Qodiriy. –T.: «Fan». 2006. 115-bet.

nisbatan o'zining qat'iy xulosa va yo'nalishiga ega tuyg'ular. Bu tuyg'u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof muhitga munosabati va bular haqidagi ma'lum tushunchaga ega bo'lgan qarashlarni ifodalaydi; bularning barchasini sintez qilib beradigan, ya'ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, ongga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud, tashqi dunyo bilan tinimsiz aloqa qilib turuvchi hislar. Bu hislar inson harakati, ruhiyatining asosini tashkil etadi»¹. J.Eshonqulov fikrlariga qo'shilgan holda yana shuni qo'shimcha qilib o'tish joizki, inson ruhiyati xuddi kun-tun almashinuviga o'xshaydi. Chunki kayfiyatga qarab turlanib-tuslanib turadi. Ba`zan ko'ngil xotirjam bo'lgan paytlari hech narsani o'ylamaydi kishi, ba`zida bezovta holatga tushganida kulgan odamni ko'rishga ham yuragi betlamay turadi. Bu esa inson ruhiyati murakkabligidan dalolat beradi. Ruhiyat murakkab bo'lishi mumkin. Ammo buni inson mukammal emas. Binobarin, «Isyon va itoat»da ruhiyat bilan bog'liq har ikkala shaklni uchratamiz. Buning yorqin misoli sifatida aytish joizki, Akbar va uning qamoqxona hayoti bilan bog'liq tafsilotlarda ko'zga tashlanadi: « - Nahotki, inson hayoti hech narsaga arzimasa? Tavba, bir tarsaki uchun qamab tashlayversa-ya... Hukm qilayotganlar bu yoqda ham o'ziga o'xshagan... Xudoning bandasi – odamzot ekanini hech o'ylasharmikin o'zi?...»².

Akbar o'z-o'zi bilan olishib, isyon qilishining dastlabki kunlarida shunday mulohaza yuritadi.

U.Hamdamning ikkinchi «Isyon va itoat» romanida o'zgacha shaklu shamoyil – tasvir ixchamligi, tafsil qisqaligi va ana shu jarayonda xarakter badiiy tadrijini rivojlantirishda ilohiy-diniy kiritmalarni matn qariga ustalik bilan singdirishi badiiy yaxlitlik kasb etadi. Roman kutilmagan vaziyat bilan boshlanadi. Demak, asar muqaddimasidagi – tun ramzi va Yaratilishi birinchi kunidayoq qahramonning keyingi hayotiga, uning qismatiga ishora mavjud. Janr

¹ J.Eshonqul. Fol'klar: obraz va talqin. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti. 1999. 130-bet.

² U.Hamdam. Isyon va itoat. _T.: «Yangi asr avlodi», 2003. 5-bet. Bundan keyingi adabiyotlar qavs ichida ko'rsatiladi.

ichki intizomi, voqealar ketma-ketligi, yozuvchi badiiy niyati va ko'lam ham aynan, odamzotni tozarish sari qadam qo'yayotgani – Isyon qilayotganini mantiqiy asoslab boradi.

Mutolaa va tahlil jarayonida shu narsani his etish mumkinki, romanda inson ruhiy borlig'i turfa ko'rinishlari qabarib ko'rinadi. Chunki asar voqealari izchil suratda bir-biriga mantiqan bog'langan - uchta qism, sakson sakkiz bobdan iborat bo'lib, har bir bobda yozuvchi tavirlanayotgan hodisotga qisqalik bilan to'xtaladi va ayni shu ixchamlik shaxs olamini anglashga, davr ziddiyatlaridan voqif bo'lishga, o'tmish va kelajak xususida jiddiy mushohada yuritishga kitobxonda tasavvur uyg'otadi:

«Olam uzra zulmat hukmron edi u paytlar. Na qittay yorug'lik bor edi va jinday harakat. Ehtimol, mavjud edi ular. Biroq zulmatning qa'rida cho'kib yotardi. Boshqa yoqdan esa yorug'likni, harakatni ko'ra oladigan, ularni idrok eta biladigan xilqatning o'zi yo'q edi. Faqat Tangri taolo bor edi. Vaqti kelib U bilinmoqni istadi. Zulmatning qornini yorib, butun boshli dunyo yaratishni niyat qildi. Va, «Yorug'lik bo'lsin!» dedi. Shunda zulmatning bag'ri chok-chok so'kilib ichidan nur oqib chiqdi. Dunyoda zulmat va nur, tun va kun paydo bo'ldi. Bu yaratilishning birinchi kuni edi...»(2,3b).

Roman muqaddimasida keltirilgan ushbu lavhada yozuvchi olamning yaratilishi xususida fikr yuritadi. Aynan, adib badiiy voqelikning shartlanganlik mohiyatidan sira uzoqlashmagan holda o'ziga xos uslubi - ruhiyat tasviriga mantiqiy urg'u beradi. Bu erda zinhor shaxs ruhiyatidan so'z ochilmaydi. Ammo roman tafsilotlarida keyingi hodisotlarga ishora qiladi. Chunki bosh qahramon Akbarning «qamoqxonada tuynugidan tashqariga qarab turishi», o'zligi bilan to'qnash kelish hollariga badiiy chizgilar beradi. Aytish joizki, «Ulug'bek Hamdam inson zotining kuchli va o'z jihatlarini xilma-xil nuqtai nazarlarda aks ettiradi. Ayniqsa, bashariyatning ilk tarixi bilan qiyosiy tahlil etishda ijobiy mazmundagi kiritmalardan foydalanish ijobiy natijalar bergan. Odam zotining tavba, anglash, his etish yo'lini o'tib itoatga kelishi, haq yo'lidagi bandasining

hidoyat qilinishi bilan ilohiy-falsafiy fikrlar birmuncha hayajonli o'y-mulohazalar orqali Akbar obrazi misolida ilgari suriladi», - deb yozadi M.Pirnazarova. Darhaqiqat, olimaning ushbu fikrini nazariy asosda sharhlaganda «Isyon va itoat»ning poetik sarhadlari – ruhiyat kengliklarini oydinlashtirishga yordam beradi. Negaki, inson hamisha o'zini anglash va tushunish uchun ruhan iztirob chekadi, qayg'uradi. Hattoki hayotda shunday insonlar borki, umri davomida qarama-qarshi ziddiyatlar quchog'ida yashaydi. Bunday insonlar taqdiri jonli lavhalarda «Isyon va itoat»da maromiga etib tasvirlanadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida ham ayni talqin mavjud bo'lgan. Har holda, ayrim daraxtlarni muqaddas bilish an'anasi, shuningdek, folklorda shakllangan daraxt kulti shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Folklorshunos Sh.Shoumarovning fikricha, «O'rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilishi va bu hududda keng yoyilishi natijasida Odam Atoning yaratilishi va yer yuzida insonning yashay boshlashi to'g'risida antroponik afsonalarning sujetlari o'lka xalqlari folklorida ommalasha boshladi. Ana shu tarixiy-folkloriy jarayon natijasida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida Odamning yaratilishi to'g'risidagi antroponik afsonalar silsilasi yuzaga kelgan. Islom mifologiyasining bevosita ta'sirida shakllangan o'zbek antroponik afsonalarida Odam Atoning yaratilishining sabablari, uning tuproqdan yaratilishi, odam yaratish uchun zarur bo'lgan tuproqning zamindan qarzga olinishi, Odam Atoga jon kirgizilishi, Odam qovurg'asidan Momo Havoning yaratilishi, ularning jannatdan quvilishi, Odam Ato bilan Momo Havoning yer yuzidagi hayoti haqida hikoya qilinadi»¹.

O'zbek xalq antropogenetik afsonalarda Odam Ato bilan Momo Havoning iblis qutqusiga uchrab ta'qiqlangan mevani yeb qo'yishi oqibatida jannatdan haydalgani xususida turli xil qarashlar yuradi. Yuqorida keltirilgan manbalar-u afsonalardagi hayotiy mohiyatni teran idrok etgan yozuvchi inson tabiatiga

¹ Sh.Shoumarov. Arab-o'zbek fol'klori tarixiy-qiyosiy tahlili. –T.: «Fan». 2002. 175-bet.

singib ketgan nafis tushunchasini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. Bunda Tabib – Akbar – Iskandar, Larisa xola – Diana, Tursunboy jontalash – oilasi kabilar fikrimiz yorqin dalilidir. Bular bir-biri bilan ruhiy yaqinlikda yashashadi. Romanda biri, ikkinchisining o'rnini to'ldirib kelishi va xarakter badiiy tadrijini shakllanishiga zamin hozirlaydi. Biroq asar qahramonlari turli kasb, turli yoshdagi, turli muhitdagi insonlar bo'lsa ham o'z ichki dunyosi bilan yashayotgan, bir-birini takrorlamaydigan obrazlardir.

Roman kompozitsiyasida xilma-xil badiiy kiritmalar qo'llanilganki, busiz hodisot mantig'ini, aniqrog'i Isyon nima-yu, Itoat nima? Degan savolga javob topish juda mushkuldir. Shulardan biri psixologik taranglikni zuhur etgan ilohiy-diniy kiritmada o'z aksini topgan:

«Ollah taolo Odamning hech narsadan kim bo'lmay yashamog'i uchun Adan bog`ini bunyod etdi. Unga turli-tuman daraxtlar o'tqazdi, irmoqlar keltirdi. So'ng Odamni u yerga qo'yib: «Sen bu bog`ning har bir daraxtidan yeyavergin. Faqat yaxshi va yomonni bilish daraxtidan yema.Chunki undan yegan kuniyoq o'lasan» deya buyurdi...»(2, 23 b).

Ayni keltirilgan ushbu parcha roman mohiyatida yozuvchi ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyani, syujet tarkibiy qismlari, kompozitsion yaxlitlikni, olam va odam xususidagi faylasufona fikrlarni uyushtirish jarayonida obraz psixologiyasini butun-murakkabligicha anglashga keng yo'l ochadi. Bu kabi ramzlar o'quvchi tasavvurida bahs-munozaraning uyg'onishiga, teran idrok qilib mushohada yuritishga zamin hozirlaydi. Romanning bir necha o'rinlarida har bir hodisotning mohiyatini yoritish uchun yozuvchi yuqoridagi ko'rinishda ilohiy-diniy kiritmalarni qo'llaydiki, bular esa asar jozibasini oshira olgan desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz. Negaki, inson peshonasida nima bitilganligi, ya'ni qismatidan bexabardir. Agar peshona yozuvini har kim o'zicha bilib ketganida edi, bunday isyon-u itoatga o'rin qolmagan bo'lardi.

Ruhiy tahlilni zuhur etgan badiiy asar komponentlarini biz shartli ravishda psixologizmning formalari deya, ta'kidlash o'rinli. Munaqqid H.Umarov bu

borada «Psixologizmning formalari turli-tuman bo'lganidek uning portret, dialog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosining yashirin sirlarini oshkora qilishda yozuvchiga qo'l keladi»¹. Demak, olimning ushbu fikrlari amaliy ifodasini «Isyon va itoat» romanida ko'radigan bo'lsak, umri bino bo'lib, yolg'izlikdan zerikkan, zada bo'lgan, oxiri o'zidan orqasida eslagulik biron-bir tirnoqning qolmaganiga afsus chekib, nola qilishi tabiiy, ishonarli qilib tasvirlangan. Ayni shu o'rinda, Larisa xola va Diana o'rtasidagi ruhiy-taqdirlari bog'liqligi yuqoridagi fikrlarni to'la quvvatlaydi. Inchunun, Larisa xolaning bunday itoatga kelib Xudoga yolvorishi va deyarli qismatini o'zgartirib bo'lmasligini yozuvchi mohirlik bilan tasvirlaydi. Hamda e'tiborli jihati shundaki, Diana kabi gunohga botib, o'z qilmishlaridan pushaymonlig' yeb, tazarru qila boshlagan qiz uchun Larisa xola ko'zgu bo'ladi va romanda badiiy uning funktsiyasi o'ziga xosdir:

«Larisa xola tag'in o'sha tushni ko'rdi. Tag'in o'zini tug'ilib o'sgan va bolaligi o'tgan Volga daryosi bo'yidagi xutordan topdi. Tag'in u har safargidek, mala, qo'ng'ir sochli bolalar qurshovida, ayni chog'da navbatdaxisiga homilador holda kattamon stol atrofida o'tiribdi...

Yana tushiga goh ota-onasi, goh opa singillari-yu ukalari, goh eri kirardi. Nima bo'lgandayam, ular o'tirgan uyni turli yo shva jinsdagi odamlarning, bolalarning ovozlari, quy-chuvlari tutib yotardi... Biroq u har safar negadir bolalarga e'tibor berardi yoki uyg'onganda tushining aynan bolalar bilan bog'liq qismini yorqinroq eslay olardi. Bugungi tushi ham shunday bo'ldi: u stol atrofida saranjom-sarishta kiyingan va o'z galini kutib turgan bolalarga bejirim ko'zachadan sut quyib berardi... Keyin o'ziga ham quyib ohista o'tiribdi-da sekin-sekin yutum-yutum ichibdi. Qornini – homilasini silabdi... Shu erga kelganida esa uyg'onib ketdi. Uyg'ondi-da tushiga kirgan bolalarni tanib bir g'alati bo'lib ketdi: ular o'zining tug'ishgan opa-singillari va ukalari edi. Faqat

¹ H.Umurov. Risolalar. Saylanma. 1-jild. –T.: «Fan». 2007. 34-35-betlar.

bolalarning ichida o'zini ko'rmadi. Shunga ham o'ylandi. Biroq homila-chi?.. U men emasmi? Axir men o'rtancha edim-ku? Nega endi kenjatoy bo'p ko'rindim u yerda, nega tug'ilmagan bola bo'lib?.. Balki menmasdirman. Unda men qaydaman? Hamma bor, bitta men yo'qman? Nega?.. Ona-chi? Ona kim edi?..»(2, 39-40b).

Romandan olingan ushbu parchada yozuvchi nimaga alohida mantiqiy urg'u berayotganini bilish qiyin emas. Tush bilan bog'liq tafsilotlar og'zaki ijodda ham istagancha topiladi. Mazkur jarayonni butun-murakkabligicha ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan «psixanaliz fanining otasi» Zigmund Freyd shunday talqin etadi. «Freyd tushni tahlil qilar ekan, tushga e'tiborsizligi shu insonlarning ruhan mayib bo'lib qolishiga sabab bo'ladi degan xulosaga keladi. Tushga – ichki istak va kechinmalarga e'tiborchizlik tufayli odamzot eng katta fojeaga duch keldi; u o'z qalbini unutib qo'ydi. Freyd XX asrga xos yovuzlik, qullik, mutelik, ruhiy kasalliklar, axloqiy buzilishlar, ma'naviy yuzsizliklar, e'tiqodsizlik va iymon sustligini insonning ichki istak-kechinmalariga e'tiborsizligi yoki bu kechinmalarni zo'rlik bilan jilovlab qo'yishida deb tushuntiradi»¹. Darhaqiqat, inson hamisha yolg'izligini his etib yashaydi. Atrofida gul-gul chehralar – qarindosh-urug'lari, do'st-u birodarlari bo'lsa ham o'zi nimadandir siqiladi. Sharq farzandining bir xislatiki bor, birovga hamma sirini ochiq aytolmaydi. Hattoki, er-xotin ham bir-birlaridan ba'zi bir narsalarni pinhon tutishadi. Bu esa odamning o'z ko'ngliga quloq tutib yashashi, o'sha ko'ngil amriga bo'ysunib yashashida ma'lum xatolarni o'zicha haq deb, tushunishida va alal-oqibatda mislsiz muammolarga duchor bo'lishiga olib keladi. Buni bashar shunday yaratilgan. Bunga tahrir kirtishning iloji yo'q. Romandagi barcha ilohiy-diniy kiritmalar ham ayni hodisotlarning sababini teranroq ilg'ashga ishora vazifasini o'taydi. Masalan, romanda o'z-o'zi xayollari bilan yashab, gulgun chehrasiga mahliyo bo'lib, umri o'tib ketayotgan, oqibatda ortida eslaydigan bir farzandi yo'qligidan siqilgan, tavba tazarru qila boshlagan,

¹ Bu haqda qarang: J.Eshonqul. Fol'klor: obraz va badiiy talqin. Qarshi., «Nasaf», 1999. 104-bet.

iztirob chekayotgan inson «men»iga duch kelamiz. Bu esa Larisa xola va Dianadir. Ayni shu jihatlar har ikkala xarakterida maromiga etib tasvirlanadi. Larisa xola esa tush ko'radi. Tushida homilasini – qornini silaydi. Demak, uni yillar bo'yi ta`qib kelayotgan birdan-bir echilishi qiyin bo'lgan muammo ham – befarzandlik. Eri «unga bola tug`» deb necha marotaba yolvoradi. Foydasiz edi. Chunki u husni tarovatidan ayrilishni istamasdi:

«Men ham bir vaqtlar xudi sendek edim. Erkaklarning og`zidan suvini qochiradigan darajada chiroyli edim. Hatto o'zim o'z husnimga mahliyo bo'lib, viqor bilan yurardim. Xaridorlarim boshimdagi soch tolalarimdan-da ko'p edi chamamda. Hatto turmushga chiqib, yoshim biroz qaytgandan keyin ham ular ortimdan gul ko'tarib yurishardi. Eh-he, nimasini aytay... Bir umr o'lgunimcha shunday sevimli bo'lib yuraman deganimnimi yoki seningkidek xipcha belimni buzib qo'yaman deb homilador bo'lib qolishimdan qo'rqanlarimnimi?.. Erim rahmatlik, qancha istagandi, bola ko'rishni qancha yolvorgandi men nodonga... U-ku vaqtida ketdi, yolg`ish qolib tirnoqqa zor bo'lgan, farzand qadrini bilgan va kuygan men bo'ldim... Voy, nega noliyapman? Bunga haqqim bormi? Qilmishlarimga yarasha jazosini olmayapmanmi, axir?..»(2, 14b).

Romandan keltirilgan yuqoridagi iqtibosda yozuvchi Larisa xolaning imkonsizligini, yoshlik damlarida ertangi kelajak xususida bosh qotirmaganini real tasvirlaydi. Asarda qahramon yolg`iz o'z xayollari bilan o'z-o'zini tahlil va taftish qilish jarayonida, mulqotga kirishish onlarida aynan ko'ngli nimalarni istayotganini, botinini timlimlayotgan iztirobga xos ism tomolmay arosatda qolganini kitobxonga hikoya qilishni emas, ko'rsatishni, hodisot mantig`ini anglashni nazarda tutgani shubhasizdir. Roman kompozitsiyasida Larisa xola – Diana ruhiy jihatdan biri ikkinchisiga saboq bo'lib tuyuladi. Aslida ham shunday. Buni odamzot o'zining oldingilari, ya`ni ajdodlari qilgan xatolardan zarur xulosa chiqarib ish yuritmasa yoki shunga qarab qadam tashlamasa, bilib-bilmay qilgan gunohi evaziga butun umri davomida aziyat chekib yashashi hech gap emas. Romanda ana shunday ikkilik – katta va kichik, aniqrog`i yosh

jihatidan ham anchayin farqlanuvchi xilma-xil personajlar ruhiy tabiatini yoritganki, buni ijodkorning yutug`i sifatida baholash mumkin. Aytish joizki, ayni shu holat Tabib – Akbar – Iskandar kabi personajlarda ham yaqqol ko`zga tashlanadi.

U.Hamdami romanning juda ko`plab o`rinlarida sujet va kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltirgan psixologik taranglik, ya`ni uning shartli formalarini matn mohiyatiga singdirib boradi. Shulardan biri ichki monologdir. Bunday xususiyat, ya`ni ifoda uslubi «Muvozanat»da Yusuf, «Sabo va Samandar»da Samandar, «Isyon va itoat»da Akbar kabi personajlarning ruhiy olami, o`z dunyosi ichra yolg`izlanib yashashi, aniqrog`i mislsiz botiniy zidditlar quchog`ida iztirob chekishi to`la misol bo`la oladi.

Ma`lumki, adabiyotshunoslik ilmida ichki monolog ham badiiy asarning muhim xalqasi ekanligiga guvoh bo`lamiz. Bu xildagi nazariy qarashlar roman janri yaratilgani va bu boradagi ilmiy qarashlar shakllangan davrlardan buyon turlicha tahlil etib kelinadi. D.Quronov bilan hammualliflikda chop qilingan «Adabiyotshunoslik terminlari izohli lug`ati»da shunday e`tirof etiladi: «Ichki monolog – personajning moddiylashmagan, o`ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli. Shartli ravishda inson ongida kechayotgan o`ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi. Personaj ruhiyatini tasvirlash vositasi sifatida antik dramaturgiyadayoq ma`lum bo`lgan, uyg`onish davridan boshlab, ayniqsa, keng qo`llanila boshlagan»¹. Darhaqiqat, olimning ushbu e`tirfi haqli ravishda biz tahlil etayotgan romanda Akbar ruhiy to`lg`onishlarini oydinlashtirishga, uni anglash va tushunishga yordam beradi. Aynan, ichki monolog har bir asarda ishtirok etuvchi personajlar xatti-harakati jarayonida bo`y ko`rsatadi. Masalan, bu borada L.N.Tolstoy va F.M.Dostoevskiy asarlarida ham personaj ongida kechayotgan hodisotlar yozuvchi aralashuvisiz bo`lish jarayoni tasviri sifatida berilib, ong va ongosti qatlamlari faoliyatini butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan tasvirlashga harakat

¹ Bu haqda qarang: Internet materiali. www.quronov.narod.ru.

kuzatiladi. U.Hamdam yaratgan personajlar ham o'z-o'zi bilan tillashab, adog'siz mulohaza yuritadi, kuyinadi, sevinadi, nimalardir xususida o'z «men»i bilan olishadi:

«Akbarning noroziligi taxminan ana shu zaminda tug`ilgandi. Uning eng katta e`tirozi kamonni otganga – Xudoga edi. «Nega odamzodga bunchalar hassos qalb va nozik idrokni berganing holda uni shunchalar muvaqqat va o'jiz qilib yaratding?! Magarki shunday yaratishni istagan ekansan, unda bani odam uchun hassos yurakka, nozik idpokka balo bormidi?.. Axir u shu xususiyatlari tufayli ham o'zini mudom baxtsiz sezadi-ku... - derdi u Yaratganga isyon qilib, - chunki inson o'z ruhining go'zal ekanligini sezib qolgan va bu go'zallikning o'tkinchiligi, peshona yozig`ining chidab bo'lmas darajada achinarli ekanligi norozilikni – Isyonni tug`dirmaydimi?... Bilaman, yaxshi anglayman, inson o'z-o'zidan bino bo'lgan emas. Jami tiriklikning ortida shubhasiz, Sen borsan, ey Yaratuvchi! Bas, shuni bilgach, o'z qismatiga qarshi oshkora bosh ko'tarish aql-idrokdan emasligini ham tushunaman. Lekin shunga qaramay, bosh ko'taryapman. Bosh ko'tarishdan o'zga chora topolmayapman. Nega, nima uchun?.. Qani, javob ber O'zing, ey Xoliq!..»(2, 112-113b).

Romanning o'ndan ortiq o'rinlarida har bir qahramonni o'z tabiatiga qarab xarakterini chizishni yozuvchi maqsad qiladi. Bu maqsadlariga erishadi ham. Negaki, ayni ichki monolog – psixologik vaziyatni yuzaga chiqaradi. Chunki inson ichki olami nihoyatda sirli va anglash juda mushkul bo'lgan bo'shliqdan iborat. Bu ayni bo'shliqning o'zi emas. Hamisha va hamma vaqt borliq, umuman mavjudlik xususida nimalarnidir bilishga qiziqqan inson botini bo'shliqligicha qolaveradi.

Yozuvchi tabiat hodisalari, fasllar almashinuviga ham ramziy ma`no yuklaydi. Uning idrokida «tabiat tasviri shunchaki qahramon ruhiyatini yoritish uchun qo'shimcha vosita emas, balki maqsaddir(R.Rahmat)». Aytish joizki, tabiat va borliq haqida mulohaza yuritar ekan, shunday ma`noli va ta`sirli

tasvirley olganki, biz bu manzaralarni o'qib butun koinotni boshqarib turgan Tangri taolo irodasini rosmama his etamiz:

«Pag`a-pag`a oppoq qor yog`ardi. Metrodan chiqib ishxonaga shoshib borayotgan Akbar xiyobonga yetganda qadamini sekinlatdi. Afsonaviy libosga burkanib uzundan-uzun hayollarga cho`mgan daraxtlarga entikib, tikilarkan, tiliga she`r qalqib chiqdi:

«Pag`a-pag`a oppoq qor yog`ar,
Bog`lar kiymish ilohiy libos»¹.

«Tug`ilmoqning, dunyoda yashamoqning ma`nisi shu go`zallikni his qilish va unga e`tibor ko`rsatishda ham emasmikin...» - mulohaza yuritardi Akbar yuz-ko`zlariga uchib-kelib qo`nayotgan hamda zumda erib ketayotgan laylak qordan zavqlanarkan...»(2, 82-b).

Har bir qalb, turmushning achchiq zarbalaridan yegan azoblarini oppoq, mo`jizaviy qorga qaraganida, botinida, yuz-ifodalarida ham, biroz engillikni, yashashning rohati totli ekanligini his etadi. Ertalab arzimas bir narsalar xususida o`ylab, siqilib tashqariga kayfiyatsiz chiqaningizda chor atrofni oppoq qorga burkagan Olloh istagi-yu karomatini ko`rib tahsinlar aytasiz. Dunyoning dardlarini bir dam unutgandek bo`lasiz. Olam-olam zavq olasiz, yana o`z orzularingiz bag`rida sayru sayohatga chiqasiz. Bu esa Tangri taoloning istagi va irodasining mevasidirki, bundan faqatgina ko`ngil ovutish uchun emas, o`zligini anglash uchun yuborilgan ko`kdan – in`om bo`lsa ajabmas! Akbar ham yillar zahmatini bir dam unutmoq maqsadida oppoq qorni ko`rib sevinadi, mulohaza yuritadi, qayg`uli damlarini esidan chiqargandek bo`ladi. Shu ma`noda U.Hamdam qo`llagan har bir deatl` o`z yashash maydoni va bajarish funksiyasiga ega. Sababki, inson ruhiyatini nozik ifodalar bilan chizishga muvaffaq bo`lgan yozuvchi olam haqida umuminsoniy miqyosdan turib fikrlaydi, qalbidan o`tkazadi, bu esa o`z navbatida o`quvchining diqqatini o`ziga jalb eta boradi.

¹ R.Parfi misrasi.

«Ispan adabiyotshunosi A.Prieto «roman qoniqmaslik yoki ishonchu umidlarda aldanishdan kelib chiquvchi isyon natijasida dunyoga keladi» deb aytadi»¹. Darhaqiqat, o'tish davrida zamondosh inson ruhiyatidagi jiddiy evrilishlar ro'y bergani haqiqatdir. Bu esa har bir davrning adabiy mahsulotiga juda tez suratda ta'sir etadigan omillarga aylanayozdi. Chunki badiiy asar qaysi muhit va sharoit, davr va zamonda yozilmasin, o'sha davr nafasidir, kayfiyatidir. Bunday deyishimizga sabab, qariyb bir asrlik qaramlikdan tamomila qutulayozgan millat kishisi ikkinchi bir davrga qadam tashlar ekan, ojiz tomon **AROSAT** botqog`ida qolishi muqarrar. «Isyon va itoat»da Akbar bilib-bilmay qilgan gunohi uchun ozodlikdan mahrum etilishgacha borgan, bir maromda kechayotgan umrini boshqa bir o'zanga burib yuborgan, birdan-bir sabab ham ojizligidir. Natijada turfa sinovlarni boshidan o'tkazib, o'zligi sari yuzlangan qahramondir.

Umuman, U.Hamdamning «Isyon va itoat» romani mohiyatida ramiziy-majoziy talqin etakchilik qilsa, unda inson o'zining kim va qanday qudratga ega mavjudot ekanligi xususida yillar bosh qotiradi, shu sababli Isyonu itoat qilib mavjudlik jumbog`ini anglagandek bo'ladilar. Lekin hech bir banda Yaratuvchisini to'la tushunib etolmaydi. Tasavvuf ilmida ham yozilganki, Allohni anglamoq uchun yo'lga chiqqanlar o'zlgini anglamoq uchun qadam qo'yganlardir, ular faqatgina ana shunday ezgu amallari bilan Allohga yaqinlashishdan o'zga haqiqatga yuzma-yuz kelolmaydilar (Ta'kid bizniki O.Xudoybergenov). Roman ichkarisidagi hayot ma'nisi shu kabi mangu jumoqni tushunish uchun bir ko'prik vositasi xolos. Bunda Tabib va Akbar, Larisa xola va Diana, Tursunboy jontalash va oilasi, Mahkamlar roman komponentlarida o'z olami ichra, o'z taqdirlarining ma'nisini tushunib etish uchun ISYON qilgan personajlardir. Romanda sujet va kompozitsion yaxlitlik juda silliq tarzda mavjlanadi. «Isyon va itoat» o'ylashga undovchi asardir. To'g'ri, ayrim xarakterlar psixologiyasi yetarlicha ochib berilmagan. Akbarning

^{1 1} Bu haqda qarang: D.Quronov. Roman haqida ba'zi mulohazalar// Sharq yulduzi. №5. 2011. 113b

o'quvchisi Sadr va uning oilasiga tegishli tafsilot xususida roman intihosida umuman so'z yuritilmaydi. Akbarning yigirma yil isyon qilib, oilasidan, huzurhalovatidan judolikda – yolg'iz yashashga giriftor qilgan ham o'quvchisi aynan, Sadr emasmi? Bu bir kam dunyoda jinoyat jazosiz qolmaydi. Sadr kabi axloqsiz kishilar albatta Tangri taoloning oldida jazosini olishi kerak edi. Ayni shu jihatlari anchayin tahrir talabki, busiz romanning badiiyatini his etish mumkin bo'lmay qoladi.

Aytish joizki, ijodiy faoliyatini ayni mustaqillik yillarida boshlagan va bir-biridan mavzu-mundariyasi jihatidan farq qiluvchi takrorlanmas romanlar yozgan Ulug'bek Hamdam g'arb va sharq badiiyat olamidan ta'sirlangan, o'zidan oldingi romannavislar an'anasini davom ettirgan holda, go'zal namunalarini ham yarata oldi. Adib hikoya va qissachilikda ham o'ziga xos ovozigga egadir. Hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga qarab evrilib borayotgan yozuvchi badiiy tafakkuri o'z o'quvchilarining muhabbatini qozonishga musharraf bo'ldi. Bunday muvaffaqiyailarga erishuvida, badiiy mahoratining shakllanishida, muhim omil bo'lgan istiqlol yaratgan imkoniyat – so'z erkinligining totli mevalaridir desak, ayni haqiqatligi oydek ravshanlashadi.

UMUMIY XULOSALAR

XX asr so'nggi o'n yilliklarida mamlakatimiz misli kuzatilmagan taraqqiyot yo'liga qadam tashladi. Ayniqsa, istiqlol davri badiiy solnomasida roman janri jiddiy takomillashib, tadrijiy shakllanib, an'anaviy yo'ldan ham o'zgiga xos bir tarzda evrilishlarga yuz tutdi. Bunga asosiy sabab globallashuv jarayonining badiiyat olamiga ham o'z ta'sirini o'tkazganida ko'rinadi. Darhaqiqat, tasvir etilayotgan hodisotlar jiddiy talqinlarni yuzaga chiqarmoqda. Roman mavzu-mundariyasi, epik kengliklari, tavsir xilma-xilligi bugungi kunga kelib, anchayin kechagiga nisbatan farq qiladi. Ruhiy tahlil imkoniyatlari kengaya boshladi. Ijtimoiy muammolardan ko'ra ko'proq, inson ruhiyatini birinchi planga chiqarib tasvirlash va shu orqali jamiyat hayotiga nazar tashlash bugungi adabiyotning bosh mezoniga aylandi. Yozuvchi endi erkin, mustaqil bir tarzda ijod qila boshladi. O'tgan sobiq ittifoq davri mafkuraviy tazyiqlar adabiyotni xolis fikrlardan tamomila bo'g'ib, biqiq bir holga solib qo'ygani barchamizga ma'lumdir. Mustaqillik sharofati jahon estetikasi va madaniyatini o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Buning amaliy ifodasi sifatida J.Joys, A.Kamyu, F.Kafka kabi faylasuf yozuvchilar asarlarining o'zbek kitobxonlariga badiiy tarjima san'ati orqali yetib kelganligidadir. Shunga xamohang xalqimizning so'nggi yuz yil ichida orziqib kutgan istiqlol madaniy hayotimizda, ham adabiyotimizda sermazmun asarlarning tug'ilishiga zamin hozirladi. Bu davrda bir avlod vakillari yaratgan ilk asarlaridanoq olim-u munaqqidlar e'tiboriga tushib, kitobxonlar mehrini qozona boshladi. Bular Sh.Bo'tayev, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, L.Bo'rixon, T.Rustam, S.Vafo, U.Hamdani kabi yozuvchilardir. Biz olib borgan BMImizni hozirgi o'zbek nasrida badiiy xarakter yaratishdagi o'zga xoslikni iste'dodli yozuvchi Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdani asari asosida tadqiq etishni maqsad qildik.

“Badiiy asarda qahramon xarakterining shakllanishi” deb nomlangan tadqiqotimizda biz asosan, xarakterining ochib berilishidagi qo'llanilgan unsurlarga e'tibor qaratdik. Bular o'z navbatida yozuvchining mahoratidan

darak beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam qahramon xarakterini individuallashtirishda o'ziga xos usul va yo'sinlardan foydalanadi. Masalan, har bir detalga umumruhiyatga tegishli zalvor yuklaydi. Shu masalalardan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda quyidagicha xulosa yasadik:

- Shaxs psixikasini yoritish har kimda turlicha kechadi. Adabiyot inson ruhiyatini kashf etish san'atidir. Jahon adabiyotida shunday so'z san'atkorlar borki, ular yaratgan xilma-xil obrazlar zamonlar osha yashab kelmoqda. Dostoyevskiy, Tolstoy, Balzak, Stendal, Mopassan kabi yozuvchilar har biri o'ziga xos bir olam bo'lish barobarida, bir-birini sira takrorlamaydigan **SHAXS**lardir. O'zbek adabiyotining bir qadami milliy zamindan suv ichgani kabi, bir qadami umuminsoniy g'oyalar bag'rida etilib kelmoqda. Shubhasiz, Isojon Sultonning jiddiy tajribalari – qissa-yu, romanlari, hikoyalari fikrimizning yorqin dalilidir;

- Isojon Sulton "Munojot" qissasida ichki monologlar qahramonlar hayotida, dunyoqarashida, o'z-o'ziga munosabatida o'zgarishlar yuz berganda kuzatiladigan keskin va noqulay vaziyatlardagi personaj ruhiyatini aniq-tiniq ochgan. G'arib qalbidagi ma'rifatga tashnalik va kolliziya asosida oilasi, yaqinlari oldidagi majburiyat bilan yuragida yashayotgan Muborak Zotning rasmini chizish orasida ziddiyat yotibdi. Muallifning ochiq-oydin ko'rinmay turgan ishtiyoqi, sujet va xarakterologiyaning muayyan muammoga qaratilganligi, xarakteristikaning zichligi, qissago'ylikning yuqori darajada lirikligi qissada badiiy psixologizmni tayin etgan.

- Isajon Sulton va U.Hamdam tush motiviga ulkan badiiy-estetik vazifa yuklaydi. Asarlaridagi adabiy tushlar qahramonlar taqdirini avvaldan bashorat qilib beradi. Ramzlar tili orqali qahramonlar ichki olamidagi silsilalar yoritib beriladi, tush badiiy detali ko'magida xarakterlar ruhiy tahlilga tortiladi.

- U.Hamdam qahramon haqidagi to'la tasavvurni kitobxon fantaziyasiga ishonib topshiradi-da, uni tasvirlash bobida bor-yo'g'i bir nechta yorqin detal

bilan cheklanib qo'ya qoladi. Yozuvchining diqqati personajning alohida qirralariga qaratilgan bo'lishi mumkin, qolganini esa o'zimiz, hayolimizda tiklaymiz, chizib olamiz.

- «Isyon va itoat» adib adabiy guldastasida o'ziga xos halqani tashkil etadi. Bunda olam va odam xususida tinimsiz mushohada yuritayotgan, «yashashning ma'nisi nima?» degan savol bilan bir umr iztirob ichra yashayotgan inson «men»iga duch kelamiz. Romanda qisqa, ixcham tafsilotlar kompozitsion yaxlitlikni tashkil etadi. Tabib va Akbar munosabatlari, Larisa xola va Dianalarning ruhan bir-biriga yaqin jihatlari, Tursunboy jontalash va uning oilasi o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar asar mohiyati dalolatlaydi. Isyon - bu o'z gunohini Yartagandan madat so'rab, Itoat sari kelayotgan inson botinidagi kechayotgan o'ta dolg'ali, iztirobli, ayanchli hodisalardir. Romanning bir necha o'rinlarida ilohiy-diniy kiritmalardan foydalanganki, buni shunday izohlash mumkin: har bir banda yashash uchun kurashadi. Har bir inson «baxt nima?» degan savolga o'zlaricha javob axtarmoq payida bo'ladilar. Bu omonat dunyoda har bir tirik jonki, bor omonat, o'tkinchi ekanligi romanda o'z ifodasini topgan. Ba'zi o'rinlarda, voqealar bayonchiligi, xarakter psixikasi(Mahkam, Iskanar, Sadr, Farida, Marat) yetarlicha yoritilmagan o'rinlar uchraydi;

2. U.Hamdamning «Isyon va itoat» romani mohiyatida ramiziy-majoziy talqin yetakchilik qilsa, unda inson o'zining kim va qanday qudratga ega mavjudot ekanligi xususida yillar bosh qotiradi, shu sababli Isyon-u itoat qilib mavjudlik jumbog'ini anglagandek bo'ladilar. Lekin hech bir banda Yaratuvchisini to'la tushunib yetolmaydi. Tasavvuf ilmida ham yozilganki, Allohni anglamoq uchun yo'lga chiqqanlar o'zlgini anglamoq uchun qadam qo'yganlardir, ular faqatgina ana shunday ezgu amallari bilan Allohga yaqinlashishdan o'zga haqiqatga yuzma-yuz kelolmaydilar (Ta'kid bizniki O.Xudaybergenov). Roman ichkarisidagi hayot ma'nisi shu kabi mangu jumoqni tushunish uchun bir ko'prik vositasi xolos. Bunda Tabib va Akbar, Larisa xola va Diana, Tursunboy jontalash va oilasi, Mahkamlar roman komponentlarida o'z

olami ichra, o'z taqdirlarining ma`nisini tushunib yetish uchun ISYON qilgan personajlardir.

Umuman, Ulug`bek Hamdam badiiy olami o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda, adibning mahorat sirlari, uslubiy izlanishlari, badiiy psixologizm nuqtai-nazaridan tadqiq va tahlil qilindi. Badiiy xarakter shakllanishi I.Sulton, U.Hamdam asarlari asosida o'rganildi.

Xullas, psixologik tasvir orqali qahramonning ma`naviy dunyosi aniq-ravshan ko'rinadi. San`atkor obrazning qalbini, ichki dunyosini chuqur yoritish uchun portretni harakatda berishga tirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOIIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 173 b.
2. Karimov I. Ma`naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. – 480 b.
3. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsing // Tafakkur. – Toshkent, 1998. – №2. – B. 2-16.
4. Karimov I. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kedajakka e`tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
5. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 74 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2001. – 37 b.

II. ILMIIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

7. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 272 b.
8. Aliev A. Ma`naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000. – 630 b.
9. Aristotel`. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1980. – 149 b.
10. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 546 b.
11. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 533 b.
12. Karimov H. Istiqlol davri she`riyati. – Toshkent: Zarqalam, 2005. – 79 b.
13. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – 96 b.
14. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
15. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.
16. Normatov U. Tafakkur yog`dusi. – Toshkent: 2005. – 119 b.
17. Normatov U. Ustoz ibratlari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 126 b.

18. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
19. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir, 2010. – 385b.
20. Normatov U. Qodiriy mo'`jizasi. –T.: O'zbekiston.-2010. B. 270.
21. Nikolina. N.A. Filologicheskiy analiz teksta. Ucheb. posobie. – M.: Akademiya, 2003. – 253 s.
22. Nurmatov M. Tanqid va estetika. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1976. – 169 b.
23. Psixoanaliz asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 142 b.
24. Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1985. – 149 b.
25. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 198 b.
26. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
27. Hamdamov U. Muvozanat. –T., Sharq. 2007. 232 b.
28. U. Hamdam. Isyon va itoat. –T: yangi asr avlodi. 2003 yil.

MUNDARIJA:

Kirish.....
I bob. Badiiy xarakterni shakllantirishda falsafiy-estetik taomillar o'zaro unosabati.....
II bob. Qahramon xarakterining namoyishida ruhiy tahlilning o'rni.....
Umumiy xulosalar.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....